

Dilorom Tashpulatova

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KLASTER
YONDASHUV ASOSIDA O'QUV FANLARINI
INTEGRATSION O'QITISH
MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TAILIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Dilorom Tashpulatova

**BOSHLANG'ICH TALIMDA KLASTER YONDASHUV
ASOSIDA O'QUV FANLARINI INTEGRATSION O'QITISH
MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

Monografiya

Toshkent
"Innovatsiya-Ziyo"
2023

UO'K: 37.013
KBK: 74.2
T-29

Tashpulatova D.M.

Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish. [Matn]: Monografiya / Tashpulatova D.M. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo" nashriyoti, 2023. – 124 b.

Mazkur monografiyada boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitishning nazariy masalalari, shakllari va samaradorligi muammolari tadqiq etilgan. Unda qo'yilgan muammoning o'rganilish darajasi bo'yicha tahlillar amalga oshirilib, bu boradagi yondashuvlar umumlashtirilgan.

Monografiya talabalar, magistrantlar, ilmiy izlanuvchilar va sohaga qiziquvchilarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

O.M.Jabborova

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tagrizchilar:

D.T.Pulatova

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sh.Q.Mardonov

pedagogika fanlari doktori, professor

Monografiya Chirchiq davlat pedagogika universitetining 2023-yil 14-martdagi Ilmiy texnik kengashida ma'qullangan (3-sonli bayonoma) va nashr etishga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-9167-0-7

© Tashpulatova D.M., 2023.

© "Innovatsiya-Ziyo" nashriyoti, 2023.

KIRISH

Jahonda ta'lim vositasida insoniyatni va dunyo mamlakatlarini hozirgi zamon talablari asosida rivojlantirish jarayoni kechmoqda. Bunda ta'lim tizimini tipiklashtirilgan va yagonalashtirilgan xalqaro ta'lim dasturlari asosida takomillashtirish hamda rivojlantirish muhim o'rin tutmoqda. Mazkur jarayonda Birlashgan Millatlar Tashkilotining "XXI asrda oliy ta'lim: yondashuvlar va amaliy choralar" butun jahon deklaratsiyasi, shu tashkilotning "Yoshlar-2030: yoshlar bilan ishlash va yoshlar manfaatlari yo'lida" xalqaro yoshlar strategiyasi muhim asos bo'lmogda. Bunda yosh avlodning ta'lim vositasida tafakkuri va ko'nikmalarini mamlakatlarning tajribalari asosida shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, TIMSS va STEAM kabi xalqaro ta'lim dasturlari ham jahon ta'lim tizimining rivojlanishiga asos bo'lmogda. Ta'kidlangan xalqaro dasturlar asosida ishetrokchi davlatlarining ta'lim jarayoni hamkorlikda xalqaro miqyosida rivojlantirib borayotganligini ta'kidlab o'tish joiz.

Dunyo mamlakatlari ta'lim tizimlarida zamonaviy texnologiyalarga asoslangan o'qitish jarayonini amalga oshirish islohotlari kechmoqda. Bunda jahon mamlakatlari ta'lim tizimida o'quv fanlarini xalqaro ta'lim dasturlari qoidalari, talablari va baholash mezonlariga amal qilish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Maqsad - dunyo mamlakatlarida o'zaro bog'liqlikda tipiklashtirgan ta'lim tizimiga ega bo'lish va uning vositasida faol shaxsni voyaga yetkazishdir. Shu sababli bugungi kunda dunyo mamlakatlari ta'lim tizimida innovatsion rivojlanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida ham milliy o'quv tajribasi hamda xalqaro ta'lim dasturlari va bu boradagi xorijiy mamlakatlarning tajribalariga asosan o'quv jarayonini tashkil etish hamda o'quv fanlarini o'qitishni takomillashtirib borish ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada keyingi besh yil davomida ta'lim jarayonini

takomillashtirishga yo'naltirilgan mutlaqo yangi mazmundagi pedagogik ilmiy-tadqiqotlar yaratilganligini ta'kidlab o'tish joiz. Misol uchun, mamlakatimiz 15 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar ishtirok etadigan PIRLS xalqaro ta'lim dasturi testlarida ilk bor ishtirok etishi rejalashtirilgan. Bu xalqaro ta'lim dasturi o'quvchilarning o'qib tushunish va matematik savodxonlik darajasini aniqlaydi, baholaydi hamda o'quvchilarning mazkur ko'nikmalarini yanada rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-34-son farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi", 2022 yil 11 maydagi PF-134-son "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi PQ-112-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020 yil 27 fevraldagi PQ-131-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 14 apreldagi "Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda ushbu tadqiqot ham muayyan darajada xizmat qiladi.

Mamlakatimiz pedagog olimlari tomonidan ta'lim tizimida o'qitish jarayonini takomillashtirib borish va unda zamonaviy texnologiyalarga asoslanish muammolari bo'yicha muhim ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu borada B. Abdullayeva, O. Azizov, Sh. Abdullayeva, R. Jo'rayev, A. Zunnunov, R. Mavlonova, Sh. Mardonov, U. Maxkamov, O. Musurmonova, R. Safarova, M. Quronov kabilarning tadqiqotlarini o'qitish jarayonining asoslari bo'yicha muhim nazariy qarashlar ilgari surilgan.

Bevosita boshlang'ich ta'lim muammolari va ta'limning bu bosqichida o'qitish jarayonini tashkil etishning integratsion asoslari

muamolari bo'yicha akademik R. Jo'rayev, R. Safarova, O. Adezov, H. Abdullayeva, G. Akromova, A. Tojixonov kabilarning ilmiy tadqiqotlarini muhim metodologik asoslab bayon qilingan.

Xorijlik pedagoglardan Ya. Komenskiy, K. Ushinskiy, M. Montessori kabilari tomonidan boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan o'quv fanlarini tanlash va ularni o'qitishda asoslaniladigan metodologiyalar ishlab chiqilgan. Pedagog olimlardan A. Gerd, Ya. Babanskiy, M. Skatkin kabilarning tadqiqotlarida pedagogik jarayonni integratsion tashkil etish va uning asosida o'qitish jarayonini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan.

Klasterni yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish va unga asosan o'qitish samaradorligiga erishish masalalari olimlarimizdan G. Muxamedov, U. Xodjamqulov, S. Toshtemirova, Sh. Qudirova kabilarning tadqiqotlarida tadqiq etilgan bo'lib, bu borada o'ziga xos nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ayni paytda, klasterni yondashuv asosida boshlang'ich ta'limda o'quv fanlarini integratsion o'qitish muammosi maxsus tadqiq etilgan emas.

Markur milliy va xorijlik pedagog olimlarimizning ilmiy, nazariy qarashlari va metodologik tavsiyalari tadqiqotimizning konsepsiyasini belgilashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish muammosini o'rganish va tadqiq etishdan iborat. Monografiyaning vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi: boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik zaruriyati, uning xususiyatlari va muammolarini o'rganish;

boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish shakllarini tadqiq etish;

boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish shakllaridan foydalanishning amaliy asoslarini ishlab chiqish;

boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish samaradorligi bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va uning natijasi asosida tavsiyalarni shakllantirish.

Monografiyaning ob'yekti boshlang'ich ta'limda o'quv fanlarini klaster yondashuv asosida integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari va undan foydalanish jarayoni tashkil qiladi.

Monografiyaning predmeti boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini klaster yondashuv asosida integratsion o'qitishning turkumlashtirib o'qitish va xalqaro ta'lim dasturlaridan foydalanib o'qitishning integratsion shakllarini ishlab chiqishdan iborat.

Monografiyaning tadqiqot usullari sifatida klasterli yondashuv asosida integratsion o'qitish usullari, shakllari va vositalari; sintez va analiz, tipologik tahlil; boshlang'ich sinflarda o'quv fanlarini turkumlashtirib o'qitishning integratsion uslublarga tayanildi.

Monografiyaning ilmiy yangiligi quyidagicha faraz etildi va asoslandi:

boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik zaruriyati, uning xususiyatlari va muammolari o'rganilgan;

boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish shakllari tadqiq etilgan;

boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish shakllaridan foydalanishning amaliy asoslari ishlab chiqilgan;

boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish samaradorligi bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va uning natijasi asosida tavsiyalar shakllantirilgan.

Monografiyaning amaliy natijalari sifatida quyidagilarga erishildi:

boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik zaruriyati, uning xususiyatlari va muammolari tadqiq etilgan;

boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish shakllari tahlil qilingan;

boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish shakllaridan foydalanishning amaliy asoslari shakllantirilgan;

boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish samaradorligi bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va uning natijasi asosida tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Monografiya natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi: tadqiqotning ilmiy ahamiyati boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish muammosi tadqiq etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirishning o'quv fanlarini turkumlashtirib o'qitish va ularni xalqaro ta'lim dasturlaridan foydalanib o'qitish integratsion shakllari ishlab chiqilganligi bilan baholandi.

Tadqiqotda ilk bor klasterli yondashuv asosida o'quv fanlarini boshlang'ich ta'limda integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik zaruriyati o'rganildi, bu yondashuvning yangiligi asoslandi va uning amaliy ahamiyati belgilandi. Chunki boshlang'ich ta'limda o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish vositasida ta'lim samaradorligiga erishish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirganlik darajasini kuchaytirish va fanlararo bog'liqlikda keng imkoniyatlarga ega bo'lishga erishiladi. Bularning barchasi tadqiqotimizning asosiy yo'nalishlarini tashkil etdi.

Mazkur monografiyada ana shu masalalar tahlil etildi va monografiyaga doir fikr-mulohazalarini kutib qolamiz.

I BOB. BOSHLANG'ICH TALIMDA KLASTER YONDASHUV ASOSIDA O'QUV FANLARINI INTEGRATSION O'QITISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ZARURIYATI

1.1. Klaster yondashuv asosida integratsion o'qitish xususiyatlari

"Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" da mamlakatda sifatli ta'limga erishish vazifasi qo'yilgan. Bu vazifalar doirasiga innovatsion pedagogik ta'lim klasteri imkoniyatlaridan o'qitish jarayonida foydalanish ham kiradi. Chunki pedagogik innovatsion ta'lim klasteri sifatli ta'limga erishishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Klaster tushunchasi G'arb mamlakatlarida ishlab chiqarish aloqalarini yo'lga qo'yish mazmunida qo'llaniladi. O'qishning klaster, ya'ni topshiriqlar usuli o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, ularning umumiy fikr doirasini kengaytirishga xizmat qiladigan atamalar, tushunchalar va voqelikning bir-biri bilan bog'liqligini anglab olishga o'rgatuvchi uslubdir¹. Pedagogik ta'limning innovatsion klaster usuli 2019 yili Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutida ilk bor strategik tadqiqotlar mavzusi sifatida belgilandi.²

O'qitishning klaster usulida quyidagilar muhim o'rin tutadi:

- ta'lim, ishlab chiqarish va manfaatdorlarning o'zaro bog'liqligi;
- biror mavzu yoki darsni o'qituvchi, taklif etilgan mutaxassis va muktab jamoasi ishtirokida o'tish;
- ta'lim oluvchilarning tashabbuslarini inobatga olish.

¹ Pedagogika fanidagi ilmiy inqilob. J.Khasanboev va boshq. - T.: "Fan va texnologiya", 2009. 222-bet.
² Mirzozoda F., Xolidiyev U. Pedagogik ta'limni innovatsion kasterga aylantirish. Tashkent, 2019. 100-bet.
³ Pedagogika fanidagi ilmiy inqilob. J.Khasanboev va boshq. - T.: "Fan va texnologiya", 2009. 222-bet.

Bu yondashuv o'qitishning klaster usuli ma'no mazmunini fodalaydi. O'qitishning klaster usulining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

-o'qitish jarayoniga eng so'ngi innovatsion yondashuvlarni olib kirish;

-o'qitish usulining samaradorligi uchun o'quv, o'quv uslubiy, ilmiy adabiyotlar, vositalar hamda didaktik materiallarni uyg'unlikda tayyorlash;

-o'qitish jarayoniga keng ko'lami mutaxassislarni jalb etish.

Umuman o'qitishning klaster usuli maqsadi mashg'ulotlarni jamoaviy tarzda amalga oshirishga asoslanadi.

O'qitishning klaster usulining vazifalari quyidagilardan iborat: -mamlakatning boshlang'ich ta'lim tizimini zamonaviy bilim, malaka va kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash;

-oliy pedagogik ta'lim jarayonini ta'lim beruvchilar, ta'lim oluvchilar va ta'lim muassasalari vakillarining teng ishtirokida amalga oshirish;

-o'qitish jarayonini izchillik, uzviylik va uzluksizlik tamoyillarining uyg'unlashgan tarzda amalga oshirish;

-o'qitish jarayonini manfaatdorlarning hamkorligi asosida jamoaviy boshqarish.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish bilan o'qitish jarayonining sifat va samaradorligiga erishiladi. Shu jihatdan o'qitishning klaster usuli quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1) innovatsion yondashuvchanlik;

2) hamkorlik;

3) innavator o'qituvchilarga ega bo'lish;

E'tibor berilsa, bu tamoyillar o'qitishning klaster usuli innovatsion xarakterda ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston ta'lim tizimida o'qitishning klaster usuli endi joriy o'tilmoqda. Shu jihatdan quyidagilarni amalga oshirish dolzarb bo'lib turibdi:

-o'qitishning klaster usuli bo'yicha nazariy-metodologik ishlanmalar yaratish;

-bo'lajak o'qituvchilarga o'qitishning klaster usuli bo'yicha kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiya berish;

-ta'lim oluvchilar va ta'limdan manfaatdorlarning o'qitishning klaster usuli bo'yicha ko'nikmasini shakllantirish;

-ta'lim muassasasida o'qitishning klaster usuliga amal qilishga dolir sharoit va muhit yaratish.

Bu masalalarni joriy hal qilish natijasida o'qitishning klaster usuliga o'tish mumkin.

Boshlang'ich ta'limni tashkil qilishning klaster usulining asosiy maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilariga mavzular, darslar va o'quv fanlarini o'qituvchilar, o'quvchilar, maktab jamoasi hamda mutaxassislar ishtirokida hamkorlikda amalga oshirishdir. Bunda mavzular yoki o'quv fanlarini tushuntirishda keng jamoatchilikning imkoniyatlaridan foydalanish va keng ko'lami ma'lumotlardan oqilona foydalanish nazarda tutiladi.

O'qitishning innovatsion pedagogik klaster usuli o'zaro aloqadorlik, hamkorlik va teng manfaatdorlik mexanizmlariga asoslanadi. Shu jihatdan oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda klaster usulining quyidagi mexanizmlari idrok etiladi:

1. *Fanlararo bog'liqlik* Mazkur yondashuvga ko'ra, oliy pedagogik ta'lim jarayonida mutaxassislik va tanlov fanlari o'quv reja, mavzu, matn va maqsad-vazifalar jihatidan o'zaro bog'liq bo'lishi kerak. Jumladan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik fanlarning tarkibiy qismlari ketma-ketlikda va o'zaro uzviylikda, g'oyaviy-nazariy jihatdan bog'liqlikda ishlab chiqilishi kerak. Yangi pedagogik fanlardan bo'lgan "Bolalar

pedagogikasi” va “Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya” fanlarining o’quv rejalari hamda dasturlarini ishlab chiqishda ana shu nazariy-metodik aloqadorlik va bog’liqlikka asosiy e’tibor qaratildi. Buning natijasida mazkur yangi fanlarning o’quv rejalari va dasturlari innovatsion xarakterga ega bo’ldi. Kelgusi vazifa ushbu fanlarning o’quv materiallarini o’qitishning innovatsion klaster usuli talablariga mos ravishda ishlab chiqishdan iborat.

2. *Fanlarni o’qitishda hamkorlik.* Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini tayyorlashga yo’naltirilgan mutaxassislik va tanlov fanlarini o’qitishda universitet professor-o’qituvchilaridan tashqari sohaning tajribali mutaxassislari va ilmiy-pedagog xodimlarni jalb qilgan holda o’quv jarayonini tashkil qilish kutilgan samarani beradi. Buning uchun universitet professor-o’qituvchilari o’quv materiallarini tayyorlovchi va o’quv jarayonini boshqaruvchi vazifasini bajaradi, taklif etilgan tajribali mutaxassislar maslahatchi vazifasini ado etadi va ilmiy-pedagog olimlar esa o’quv jarayonida o’zlarining yangi o’quv materiallari bilan ishtirok etadi. Bu bilan o’qitishning klaster usuli vositasida har bir fan yoki mavzuni turli yondashuvlar asosida o’qitish imkoniyatiga ega bo’linadi.

Bu yondashuvda universitet professor-o’qituvchilari o’quv materiallarini tayyorlash jarayonida o’quv ishlarini jamoa bo’lib amalga oshirish tamoyiliga asoslanishi kerak.

3. *Talabalarining faolligi.* O’qitishning klaster usulida talabalarning faolligi muhim o’rin tutadi. Buning uchun o’quv materiallarini tayyorlashda 40 foizi nazariy bilim berish va qolgan 60 foizi mustaqil ta’lim hamda amaliy mashg’ulotlar materiallari sifatida tayyorlanishi maqsadga muvofiq bo’ladi. Buning uchun talabalarning mustaqil ta’lim hamda amaliy mashg’ulotlar topshiriqlarini bajarishiga asosiy e’tibor qaratiladi. Talaba har bir topshiriqni bajarish uchun taqdim etilgan o’quv materiallari bilan

ishlaydi va bunda o’qituvchi yo’naltiruvchi hamda maslahatchi vazifasini bajaradi. E’tibor berilsa, bu mexanizm talabalarning ta’lim olishi jarayonini faollashtiradi va aksincha, faol bo’lmagan talaba faol yoki mavzuni o’zlashtira olmaydi. Shu jihatdan o’qitishning klaster usuli talabalarni faollashtirishi bilan e’tiborni tortadi.

4. *O’quv materiallarini innovatsion usulda tayyorlash.* Bunda o’quv materiallarini elektron-modulli shakllarda tayyorlash va unda musofaviy ta’limning xususiyatlarini e’tiborga olish maqsadga muvofiq bo’ladi. Buning uchun tayyorlanayotgan o’quv materiallarining nisbatan ko’p qismini amaliy mashg’ulotlar topshiriqlari tashkil etishi maqsadga muvofiq bo’ladi. Bunda elektron-modulli o’quv materiallarini yangilab borish, boyitish va o’zgartirish imkoniyatlari mavjud. Shu jihatdan bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini tayyorlashda o’qitiladigan o’quv fanlarining barchasini elektron-modulli variantlariga ham ega bo’lish maqsadga muvofiq bo’ladi. Bunda asosiy e’tibor har bir o’quv yilida majburiy va tanlov fanlarining o’quv materiallarini takomillashtirib borish kutilgan samarani beradi.

E’tibor berilsa, bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini tayyorlashda o’qitishning klaster usuli o’ziga xos imkoniyatlarini beradi. Shu sababli bu usuldan foydalanish uchun quyidagi mexanizmlardan foydalanish taqozo etiladi:

- o’quv jarayonini manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil qilish;
- o’quv jarayoniga imkon qadar turli tashkilotlar va tajribali mutaxassislarni jalb qilish;
- o’quv materiallarini tayyorlashda amaliyot talablarini hisobga olish;
- talabalarni nazariy va amaliy jihatdan uyg’un tayyorlash;
- o’quv jarayoniga ilmiy va amaliy ishlanmalarni keng joriy etib hayotlash.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda klaster usulidan foydalanish uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

-o'qitishning klaster usuli asoslari va mexanizmlarini yaxshi bilish;

-o'quv jarayoniga klaster usulini turli shakllarda joriy etish;

-o'quv materiallarini tayyorlashda o'qitishning klaster usuli talablari va xususiyatlarini hisobga olish;

-o'qitishning klaster usuli natijalarini nazorat qilib borish.

Bunday yondashuv bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda tezkorlik, samaradorlik va istiqbolli asoslarga egalik imkoniyatlarini beradi. Ayni paytda, o'qitishning klaster usuli texnologik imkoniyatlarga tayanishi bilan natijador hisoblanadi va undan noan'anaviy mashg'ulotlarni tashkil qilishda foydalanish juda qo'l keladi. Bunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv-biluv faolligining oshishi samarali hisoblanadi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning klaster usuli keng imkoniyatlarga egaligi va amaliy faoliyatga yo'naltirilganligi bilan diqqatni tortadi. Shu sababli bu borada nazariy, metodik va texnologik ishlannmalar, tavsiyalar hamda mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi.

Boshlang'ich ta'limni tashkil qilishning klaster usuli bizningcha, vazifalari quyidagilardan iborat:

-maktab jamoasining boshlang'ich ta'lim bo'yicha ilg'or mutaxassislar, ilmiy va o'quv markazlari bilan hamkorligida dars o'tishi bo'yicha reja ega bo'lishi;

-boshlang'ich ta'lim mavzularini chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan ma'lumotlar asosida o'tish;

-boshlang'ich ta'lim darslarini an'anaviy va noan'anaviy mashg'ulotlar shakllarida tashkil qilish;

-boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini o'zaro bog'liqlik va uyg'unlikda o'qitish;

-boshlang'ich ta'lim klaster usulini joriy etish jarayonini monitoring qilib borish.

Bu vazifalarni amalga oshirish bilan boshlang'ich ta'limni tashkil qilishda klaster usuli imkoniyatlariga ega bo'linadi.

Hozirgi kunda boshlang'ich ta'limni tashkil qilishda o'qitishning klaster usulidan foydalanish uchun quyidagilarni amalga oshirish dolzarb bo'lib turibdi:

- oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun boshlang'ich ta'limda klaster usuli bo'yicha bilim berish;

- pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi vositasida amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'qitishning klaster usuli bo'yicha malakasini tarkib toptirish;

- boshlang'ich ta'limni tashkil qilishning klaster usuli bo'yicha metodologik asoslarini ishlab chiqish;

- boshlang'ich ta'limni tashkil qilishning klaster usuliga doir kalqaro tajribalarni o'rganish.

Mazkur masalalarni hal qilish boshlang'ich ta'limni tashkil qilishda klaster usulida oqilona foydalanish imkoniyatlarini beradi.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, o'qitishning klaster usulini boshlang'ich ta'limda joriy etishda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini jittimoiy, aniq va tabiiy fanlar turkumlariga bo'lib o'qitish;

- mazkur turkumlar bo'yicha mutaxassislarini, ilmiy va o'quv markazlarini boshlang'ich ta'lim mashg'ulotlariga keng jalb etish;

- boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarining klaster usulida o'qitish jarayonini Sinf rahbari tomonidan nazorat qilib borishi.

Bunday yondashuv qo'yilayotgan muammoing echimini jiboy hal qilishga xizmat qiladi. Bularning barchasi klaster yondashuv asosida integratsion o'qitishning xususiyatlarini belgilab olishni taqozo etadi.

"Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"ning to'rtinchi yo'nalishini *sifati* ta'lim-tarbiyani amalga oshirish tashkil etadi.³ Bunda sifati ta'lim va tarbiya vositasida inson kapitalini rivojlantirish hamda adolati ijtimoiy siyosat yuritish vazifalari belgilangan. Shu sababli inson kapitalining, ya'ni shaxs aqliy imkoniyatlarining shakllanishi boshlang'ich ta'limdan boshlanadi va adolatlik ko'nikmasi ham shaxsda ta'limning mazkur bosqichida shakllanishi ma'lum. Bu vazifalarning ijrosini ta'minlashda shu jihatdan *sifati boshlang'ich ta'lim* muhim o'rin tutadi.

Sifati ta'lim - bu ta'lim jarayonida milliy ta'lim va xalqaro ta'lim dasturlari asosida tashkil etib, uning kutilgan samaradorligiga erishish jarayonidir. Bunda qo'yilgan va vazifalarning bajarilishi natijasida ta'limning sifati ko'rsatkichiga erishish nazarda tutiladi. Eng asosiy masala - ta'limda qo'yilgan o'quv materiallarining ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishidir va aynan ana shunga qarab sifati ta'lim ko'rsatkichlari baholanadi. Shu jihatdan sifati boshlang'ich ta'limni tashkil etish va amalga oshirishning tayanchlari ko'p. Ulardan biri *integratsion o'qitish* jarayonidir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrldagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv fanlarini integratsiya asosida o'qitish" vazifasi ham qo'yilganligi muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-sonli Qarori bilan

tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti"da umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida "*ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash*" belgilangan.

Integratsiyalashuv jarayoni turli xil kengayish darajalariga ta'sir qiluvchi kompozitsion va kommunikativ tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi.

Kompozitsion qismlar tarkib va tuzilish bilan bog'liq bo'lib, birlashuvchi sub'yektlarning norasmiy va me'yoriy chegaralarini aniqlashni talab qiladi.

Kommunikativ qismi esa sub'yektlar o'rtasidagi aloqadorlikning shakli, yangi sharoitda ularning tamoyil va mexanizmlarining o'zgarishlarini nazarda tutadi.

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimida integratsiyaning o'rni ortib, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quv faoliyati, oliy o'quv yurti talabasining shaxsiy rivojlanishi natijasida, ularning ijodiy va ilmiy qobiliyatlarida namoyon bo'lmoqda. Aytib o'tish kerakki, faqat zarur bilim va ko'nikmalarni egallash bilan cheklangan an'anaviy ta'lim strategiyasi shaxsning umuminsoniy va madaniy qadriyatlarini qabul qilishdagi ehtiyojlarini kamaytirib, uni madaniyati va kompetenti shaxs sifatida rivojlanishiga etarli darajada javob bermaydi. Mazkur masalaning echimlaridan biri ta'lim jarayonidagi integratsiya muammosi bo'lib, u ko'plab tadbirlarda, ilmiy manbalarda o'z aksini topgan. Ta'lim tizimining amaliy jarayonlariga integratsion yondashuvlarni joriy etish, amaliy tadbirlar olib borishda integratsiyaning tarixiy rivojlanishini bilish, kuzatish, tahlil qilish va milliy pedagogikaga muvofiq holda joriy qilish imkoniyati mavjud bo'lgan eng dolzarb yondashuvlarni tanlab olish imkoniyatini beradi. Integratsion ta'limni tashkil etishda uning umumiy tuzilmalarini qayta isloh qilish, ta'lim oluvchilarni berilgan axborotni tushunish, idrok etishga yo'naltirish, ularga butun dunyodagi barcha jarayonlarning

³ Kapanir: Marpaniev ILM Sifatli Yondashuvni Taraqqiyot Strategiyasini Asosida Demokratik Insonlarni

Yuldan Kiritish Davlati Tashkiloti. // "Yilni Yozibolish" Nizomida 2021 Yil 7 Nofabr Sona.

o'zaro aloqasi haqidagi tushuncha va g'oyalari shakllantirishga yordam berish lozim

Integratsiyaning asosida sinergiya (yunoncha "sinergos" – "muvofiglashgan", "o'zaro hamkor") qonuni yotadi. Sinergiya qonuniga asosan har qanday sub'yekt o'zida faoliyatining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi barcha jihatlarni birlashtira olmaydi, u har doim boshqa sub'yektlar bilan hamkorlik qilishga ehtiyoj sezadi. Turli sub'yektlardagi mazkur jihatlarning birlashtirilishi samaradorlikning oshishiga xizmat qiladi.

Fanlar integratsiyasini ularning o'zaro aloqalari shakli sifatida tushunish kerakligini ta'kidlab o'tgan B.M.Kedrov, bilimlarning turi sohalarida umumiy tadqiqot maqsad va vazifalari mavjudligini, undagi muammolarni hal qilish va amalga oshirish uchun muayyan yagona bilim vositalari tizimi zarur degan fikrga keladi.

Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini samarali amalga oshirish uchun pedagogik salohiyat, innovatsion muhit, innovatsion ta'lim hamda "maktab-laboratoriya"lar muhim hisoblanadi. Ushbu komponentlarda kadrlar tayyorlashda ilmiy-pedagogik salohiyatning o'rni, rivojlanish tamoyiliga asoslanganlik, zamonaviylik, yangilanish, modelashtrish, nazariya va amaliyot uyg'unligi kabi integrasiya jarayoni uchun muhim bo'lgan jihatar o'z aksini topgan.

Integratsion ta'limning rivoji ta'lim shakli va mazmunini to'g'ri, pedagogik asoslangan tarzda olib borish bilan bog'liq bo'lib, bunda ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarning chuqur tahlili talab qilinadi.

Boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiyani, sog'lom muhit, o'zaro hurmat va ijodiy hamkorlik mavjud bo'lgan pedagogik jamoada amalga oshirish mumkin. Bunda o'quv jarayonlarini integratsion yondashuv asosida olib borishning quyidagi muvaffaqiyatli tomonlarini keltirib o'tish mumkin:

Integratsion yondashuvdagi boshlang'ich sinf o'quv jarayonlarida o'quvchi tabiatni butun, yaxlit holda tasavvur etadi; o'quvchi imkoniyatlari ortib, tabiatni o'z qobiliyatiga ko'ra o'rganadi, shu orqali u mantiqiy fikrlab, mavjud hodisalar, sabablar va ularning ehimlari bo'yicha mustaqil mushohada yuritadi, natijada uning mulqot, taqqoslash, qiyoslash, umumlashtrish va xulosa chiqarish qobiliyatlari, nostandart fikrlash darajasi shakllana boshlaydi;

bunday o'quv jarayonlarida o'qituvchining kasbiy kompetentlik darajalari ortadi.

Boshlang'ich sinf darslarini integratsion shaklda tashkil etish natijada dars sifatini, o'quvchilar dunyog'arashini ham har tomonlama rivojlanishini kafolatlaydi. Integratsion o'quv jarayonlarini olib borishda birinchi navbatda, o'quvchiga fanlararo, mavzulararo bog'liqlikni etkazib berish maqsadga muvofiq, aks holda o'quvchi idrok qilmagan integrasiya davomida tushunmovchilikka duch kelishi, mavhum holatga tushib qolishi, jarayon oxirida ham noto'g'ri xulosa taqdim qilishi mumkin.

Ta'lim turlariaro kompetensiyaviy talablarni ishlab chiqish va joriy etilishida ta'lim jarayoni integratsiyasi klaster yondashuvi asosida tashkil etish yaxshi natijalar beradi. Demak, boshlang'ich ta'lim tizimidagi integrasiya jarayoni har bir sub'yektning quyidagi maqsadlarga erishishiga imkon beradi:

ta'limga yangicha innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqarish va tatbiq etishda bundan manfaatdor bo'lgan barcha hamkorlar imkoniyatlaridan foydalangan holda o'z mavqeyini yanada oshirish;

umumiy maqsadlardan kelib chiqqan holda, xususiy maqsadlariga erishish uchun hamkorlardagi mavjud resurslardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish.

Bu bilan sub'yektlarning har biri alohida va umumiy maqsad atrofida birlashtib, faqat o'z samaradorligini oshirishdangina emas,

shuningdek, boshqa sub'yektlarning ham yuqori samaraga erishishidan manfaatdor bo'ladi.

Ta'lim samaradorligining ustuvor omili hisoblangan integratsiyani turli darajalarda va yo'nalishlardagi quyidagi faoliyatini sanab o'tish mumkin:

mamlakat ilm-fanining jahon ilm-fani bilan integratsiyasi;

ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi;

davlat, hudud va muassasa darajasidagi integratsiya;

turli xil sohalaridagi ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligi;

ta'lim maydonida ta'lim turlarining barchasini uzluksiz

ta'limning yagona tizimiga integratsiyalash (maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, maxsus va qo'shimcha ta'lim va b.);

ta'limning turli bosqichlaridagi (umumta'lim nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim, yuqori sinf) uzviylik;

turli sohalaridagi bilimlar integratsiyalashuvi (fan, madaniyat, san'at, iqtisodiyot va hokazo);

kasbiy bilimlarning ilmiy tadqiqot bilan integratsiyalashuvi (tanlov nazariyasi asosidagi kasbiy bilimni nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilish);

fanlararo integratsion ta'lim (umumta'lim o'quv rejalaridagi fanlarning uzviyligi);

mavzulararo va mavzu ichidagi bilimlar integratsiyasi (muayyan fan negizidagi mavzular uzviyligi va izchilligi);

o'qitish metodlari, texnologiyalari, tashkil etish shakllari integratsiyasi;

ta'lim jarayonining turli ishtirokchilarini yagona ta'lim makonida integratsiyalash (ta'lim berruvchilar, ta'lim oluvchilar ota-onalar, maxsus ijtimoiy-madaniy guruhlar (nogironlar, migrantlar) va b.);

ta'limning barcha ishtirokchilari tarbiya va madaniyatini integratsiyalash (rahbar, xodim, ta'lim berruvchi, ta'lim oluvchi, ota-onalar, ijtimoiy buyurma talabgori) va hokazo.

Ta'lim tizimini integratsiyalash tirish jarayoni klaster asosida amalga oshirilib, uni isloh etishga doir bir qator ilmiy, uslubiy, tashkiliy va amaliy ishlar olib borilgan. Bu harakatlar natijasida barchamol avlodni shakllantirish va bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha jiboy natijalarga erishilmogda.

Ta'lim sifatini quyidagi integratsion usullarda samaradorligi ortadi:

1. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilimi, ishlash uslublari, mahorati, qobiliyat va fazilatleri butunligini ta'minlash hamda kasbga yo'naltirish, kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'quvchilar tomonidan pedagogik va texnik bilimlarning kombinatsiyalashgan bir butun holda o'zlashtirishi jamiyatga o'tuk, raqobatbardosh mutaxassisni ta'minlashda samara beradi.

2. Integratsiya sharoitida ta'lim sifatini boshqarishda o'qituvchi faoliyatining barcha kompetensiyalarini yaxlit holda takomillash tirish va yuqori natijaga erishish uchun o'quv jarayonini rejalashtirish, loyihalashtirish, texnologiyalash tirish, qo'yilgan natijaga erishish uchun tanlangan usul va vositalarni o'zaro uzviylik va izchillikda olib borishi ta'lim sifatini yuqori natijalarga erishishiga xizmat qiladi.

3. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini oshqurtirish va takomillash tirish fanlararo, mavzulararo individuallashgan va tabaqalashtirilgan ta'lim asosida amalga oshirishi uning kelajakdagi muvaffaqiyati garovi bo'lib xizmat qiladi.

4. O'quv jarayoni tashkiliy shakli va usullari, uni samarali tashkil etuvchi sharoit va qo'llaniladigan uslub va texnologiyalar bilan

birgalikda integratsiya sharoitida olib borilsa sifati ta'lim ta'minlanadi.

5. Integratsiya jarayonida o'quvchi tafakkurini, kreativligini rivojlantirish uchun individual ishlash, motivatsiyani kuchaytirish, mustaqil ta'limga yo'naltirish, o'z-o'zini rivojlantirish, nazorat qilish, baholash kabi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tarkibiy qismlarini o'zaro izchil olib borish orqali o'quvchi iqtidori rivojlanadi hamda sifati birovchi ta'minlanadi.

Ta'lim kontekstida esa, ta'lim turlari o'rtasidagi integratsiyani takomillashtirishda, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarini umumta'lim maktablariga birlashtirilgan holda, fanlarni o'qitish sifati oshirishga qaratilgan innovatsion modellarni tashkil etishda namoyon bo'ladi. Ta'lim oluvchi olgan nazariy bilimlarini amaliy jarayonlarda qo'llashi orqali inson-texnika, inson-jamiyat, fan-tabiat munosabatlarining keng gamrovi jarayon ekanligiga ishonadi va uning ichki dunyosi bilan jamiyat o'rtasidagi muhim kompetensiyalar shakllanadi. Ta'lim turlari o'rtasidagi integratsiya natijasida ta'lim oluvchi egallagan kompetensiyalar uning ta'limgan keyingi faoliyatida duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni bartaraf etishida, kasbning turli sohalariga tayyor bo'lishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 14 apreldagi "Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida quyidagi vazifalar qo'yilgan:

axborot-kommunikasion ta'lim texnologiyalarining integratsiyasini ta'minlash;
TIMS, PIRLS va STEAM standartlaridan o'quv jarayoni va ilmiy tadqiqotlarda foydalanish va h.k.

Bularning barchasi boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini integratsion o'qitishning pedagogik muammosini tadqiq etish dolzarb ekanligini ko'rsatadi. Shu jihatdan mazkur o'rinda

e'tiboringizga integratsion o'qitishning muhim masalalari tahliliga tortamiz.

1 Integratsiya mazmuni. "Integratsiya" so'zi lotincha bo'lib "Integrera" dan olingan va "umumiylikni to'ldirish, yaratish, otklash" ma'nolarini anglatadi.⁴ "O'zbek tilining izohli lug'at" da deyiladi: "Integratsiya - ayrim bo'laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo'shilishi, bir butunga aylanishi va yaxitlanishi". Mazkur ta'rifdagi qo'shish, butunga aylanish va yaxitlanish ma'nolari pedagogik mazmun sifatida qabul qilinadi.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida integratsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: 1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liklik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonini ifodalaydi; 2) fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni hamda uyg'unlashuvi; 3) ikki va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o'zaro muvofiqdastirish va birlashtirish. Integratsiya atamasiga berilgan bu ta'rifning ikkinchisi bevosita ta'lim va tarbiya jarayonida qo'llaniladigan ma'noni anglatadi.

Bu tushuncha atama sifatida biror voqeyilik yoki hodisaning o'zaro bog'liqligi, aloqadorligi va uyg'unligini bildiradi. Aynan mana shunday ta'rif bizning tadqiqotimizda integratsiya tushunchasining neg'iz sifatida qabul qilindi.

Integratsiya omili ijtimoiy hayotning barcha sohalarida keyingi paytlarda keng qo'llanilmoqda. Shu sababli integratsiyaning quyidagi jihatlarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) voqea va hodisalarning o'zaro bog'liq kechishini tushunish;
- 2) amalga oshiriladigan ishlar jarayonida vositalar va usullarning o'zaro aloqador bo'lishini anglash;
- 3) integratsiyaning o'zaro uyg'unlik tamoyillaridan muammolarni hal etishda oqilona foydalanish.⁵

⁴ Kuznetsov S. D. *Словарь терминов иностранных языков*. 2-том. М., 1981. 330-б. Уфбекистон миллий тилини о'рганиш институти. 4-жилди.-Т., 2001. 179-б. Педагогик энциклопедия. 1-жилди.-Т., 2012. 70-б.

⁵ Kuznetsov S. D. *Словарь терминов иностранных языков*. 2-том. М., 1981. 330-б. Уфбекистон миллий тилини о'рганиш институти. 4-жилди.-Т., 2001. 179-б. Педагогик энциклопедия. 1-жилди.-Т., 2012. 70-б.

Bunday yondashuv integratsiya omilining imkoniyatlaridan foydalanish bilan muammolarni hal etish va yangicha ishlanmalarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'linadi. Bu bilan integratsiya omilining quyidagi ikki vazifasiga e'tibor berish kerak:

a) *integratsion yo'naltirish*. Bunda axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz va ko'p kichik qismlarning o'zaro bog'liqligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to'g'ri xulosani aniqlash nazarda tutiladi;

b) *integratsion vazifalar turlari*. Bunda quyidagilar nazarda tutiladi: biror muammoni hal etishda muammoning yuzaga keltirgan sabablari uyg'unlikda o'rganiladi va ular asosida muammoning echimlari ishlab chiqiladi.

E'tibor berilsa, integratsiya omilida quyidagi uch tamoyil muhim o'rin tutadi:

- 1) o'zaro bog'liqlik;
- 2) aloqadorlik;
- 3) uyg'unlik.

Bunday tamoyillarga asoslangan integratsion jarayon va omil maqsadni amalga oshirishda masalaning ijobiy va salbiy jihatlarining imkoniyatlaridan uyg'un foydalanishni taqazo etadi.

Integratsiya omilida ijobiy va salbiy holatlar kuzatiladi. Uning ijobiy holati shundaki, yangicha yondashuv asosida an'anaviy yondashuvlar yangilanadi, salbiy holati esa ba'zida tajribadan o'tgan an'anaviy yondashuvlarning usullari o'zgarganligida namoyon bo'ladi. Shu sababli integratsiya omil o'qitish jarayoniga tadbir etilganida yangicha yondashuvni tarkib top'tirish bilan birga, an'anaviy yondashuvning tajribadan o'tgan usullarini saqlab qolishga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu hol ayniqsa integratsiya omilidan o'qitish jarayonida oqilona foydalanishda muhim o'rin tutadi.

2. *Integratsion o'qitish xususiyatlari*. Pedagogik lug'atlarda "integratsion o'qitish" tushunchasi aloqadorlik va bog'liqlik

ma'nolarida ishlatilgan. Shu ma'noda "integratsion o'qitish" tushunchasining ma'nosi "*ta'lim mazmunida uyg'unlikni ta'minlash*"dir.⁶ Shu jihatdan bizning ta'rifimizga ko'ra, *integratsion o'qitish* - bu ta'lim va tarbiya jarayonini o'zaro bog'liqlik aloqadorlik va o'zaro uyg'unlikda tashkil etish hamda uning kutilgan samarasiga erishish jarayonidir. Mazkur masalalar idrok etisa va ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha boshlang'ich sinf o'qituvchilarining layoqatga ega bo'lishiga erishilsa, ta'lim va tarbiyaning samaradorligiga erishish imkoniyatlari kengayadi.

E'tibor berilsa, bu o'rinda *o'qitish* masalasi muhim o'rin tutadi. O'qitish - bu ma'lum qonuniyatlarga bo'ysungan va umumfalsafiy metodologiyaga muvofiq ta'lim jarayoniga tadbir etiladigan maqsad, mazmun, shakl, usullar va uslublarning o'rnatilgan bog'lanishdan iborat.⁷ O'qitish natijasida ta'lim oluvchi zaruriy bilimlar bilan ta'minlanadi va u ta'limning keyingi bosqichiga bilim, ko'nikma hamda malaka jihatidan tayyorlanadi. O'qitish jarayonini tashkil etishda quyidagilarga e'tibor berish taqazo etiladi:

1) qulay, oson va samara beruvchi o'qitish metodlarini tanlash;

2) ilmiy asoslangan va zamonaviy texnik vositalarga tayanigan o'qitish texnologiyasiga tayanish;

3) o'qitish uchun nazariy, metodologik va amaliy jihatdan asosli axborotlar hamda ma'lumotlar majmuaiga asoslanish.

O'qitish jarayoniga xos bo'lgan bu xususiyatlar integratsion o'qitish mazmuniga ham xosligini ta'kidlab o'tish joiz.

O'qitishning hoziri zamon bosqichida bir necha turlari va usullari amalda bo'lib kelayotganligi ma'lum. Quyidagi o'qitish turlari pedagogik tajribadan o'tganligi bilan ajralib turadi:

- 1) an'anaviylik va qat'iyatlikka asoslangan o'qitish;
- 2) rivojlantiruvchi o'qitish;

⁶Хасибов Ж., Турагулов Х., Халилов М., Хасибов О., Усмонов Н. Педагогика фанидан изоҳли дуг'ат. "Чун на теологияга" 2009. 183-б. Бунидан кейин таъкиротинида ушбу маънага муронаат килинганда.
⁷Педагогика фанидан изоҳли дуг'ат. 597-б.

3) muammoli o'qitish;

4) dasturi o'qitish va hak.⁸

O'qitishning mazkur turlariga xos xususiyatlar integratsion o'qitish jarayoniga majmui tarzda aks etadi.

O'qitishning quyidagi usullari tajribadan o'tganligi bilan e'tiborga loyiq:

1) samarali o'qitish usuli;

2) ijodiy o'qitish usuli;

3) hissiy-qadriyati o'qitish usuli va h.k.⁹

Tajribadan o'tgan o'qitishning bu usullaridan integratsion o'qitish mazmunini belgilashda foydalanishning imkoniyatlari mavjud.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda ko'p hollarda *o'qitish mazmuni integratsiyasi* masalasiga e'tibor berilgan. Misol uchun, pedagogik lug'atda o'qiyimiz: "o'qitish mazmuni integratsiyasi – bu o'zaro ta'sir, aloqa, bir-biriga o'tish jarayoni va natijalari bo'lib, bilim sintezi, faoliyat turlari hamda iqtidor yaxlit bir tizim deb tushunilishidir".¹⁰ Bu ta'rifda integratsion o'qitishning mazmunidagi o'zaro aloqadorlik va tizimlilik o'z ifodasini topgan. Bularning barchasi integratsion o'qitishning xususiyatlarini belgilab olishda tayanch hisoblanadi.

Integratsion o'qitishga bir necha *xususiyatlar* xos. Bunday xususiyatlarining asosiyari quyidagilardan iborat:

a) integratsion o'qitish ta'lim mazmunining o'zaro aloqadorligini ta'minlaydi;

b) integratsion o'qitishda bilimlar fanlarning hamkorligi natijasida o'zaro aloqadorlikda beriladi;

v) integratsion o'qitish jarayonida bilimlar, tushunchalar, ko'nikmalar va malakalarning o'zaro uyg'unlashuviga asosiy e'tibor qaratiladi.

E'tibor berilsa, integratsion o'qitish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, eng asosiyi u o'qitish jarayoniga xos bo'lgan barcha komponentlarni bog'liqlik, aloqadorlik va uyg'unlik tamoyillari asosida birlashtiradi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, integratsion o'qitish asoslari va uning samaradorlik omillari XX asrda ilmiy idrok etilgan bo'lsa, uning *pedagogik ilidizlari* ta'lim va tarbiya jarayonining tarkibiy tajribasida uchraydi. Bu o'rinda ana shu masalaga doir bir necha misollarga e'tiboringizni tortamiz.

O'zbek mutaffakkiri *Abu Ali ibn Sinoning* (980-1037) "Shifo" asarida bolalarga o'qitiladigan o'quv farrarining *mantiqiy bog'liqlikda*, ya'ni fanlarning bir-birini to'ldirishi, ularning g'oyaviy yashillikka ega bo'lishi va umumiy usullarga tayanishi asoslab o'tilgan.¹¹ Demak, o'quv fanlarining o'zaro mantiqiy bog'liqligini ta'minlash bilan integratsion o'qitishning mazmuni bo'yicha muayyan fikrga kelish mumkin. Masalan, hozirgi zamon hozirg'ich ta'limida o'qitiladigan gumanitar turkumdagi o'quv fanlarining mazmun jihatdan mantiqiy bog'liqlikka ega bo'lishi masalada muvofiq bo'ladi.

Chech pedagogi *Yan Amos Komenskiy* (1592-1670) "Buyuk dshaktkka" asarida har bir o'qitish jarayoni quyidagi *to'rt bosqichda* amalga oshirilishi asoslab berilgan: 1) avtopsiya-mustaqil kuzatish bosqichi; 2) avtopraksiya-amaliy tasavvur qilish; 3) avtoxresiya – o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakani yangi sharoitda qo'llay olishga o'rgatish bosqichi; 4) avtoleksiya – o'z faoliyati natijasini hisoblab berishga o'rgatish bosqichi.¹² Shu jihatdan muayyan o'quv fanlari bo'yicha dars-o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilarga o'zini mustaqil kuzatish, o'zlashtirganlarini tasavvur qilish va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish hamda foydalanganlik darajasini gapirib berish olish ko'nikmalarini shakllantirish taqazo etiladi. Bunday

⁸ Borjilovskaya N.B., Pean A.A., Pedagogika.-СПб.: "Питер", 2001.-с. 90-93

⁹ Юр. маъл., 94-96-б.

¹⁰ Педагогика фанидан маълум дурат. 599-б.

¹¹ Яхшиев Ибрагим М.И. Абу али ибн Сино - великий магистр, учёный-энциклопедист средневекового Востока. Ташкент, 1980

¹² Комменский Я.И. Педагогические писания. Телера.-М.: "Педагогика". 1989.-с.9

yondashuv integratsion dars - o'qitish bosqichlarini belgilashda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Rus mutafakkir pedagogi *Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy* (1824-1871) "Boshlang'ich ta'lim predmetlari" asarida boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini o'qitish jarayonini qanday tashkil etish nazariyasi va metodologiyasi bo'yicha muhim yondashuvlar bayon qilib o'tilgan. Unga ko'ra, boshlang'ich ta'lim fanlarini tanlash va ularni ketma-ketlikda o'qitish masalalariga ahamiyat berish lozim. Shu jihatdan pedagog olim Ona tili, O'qish, Tasviriy san'at va Husnixat o'quv fanlarini yagona bog'liqlikda o'qitishni asoslab bergan.¹³ Shu ma'noda Ushinskiyning o'quv fanlarini bog'liqlikda o'qitish metodi integrativ o'qitishning ildizlaridan birini tashkil etadi.

Italyan pedagogi *Mariya Montessori* (1970-1952) "Ilmiy pedagogika metodlari" asarida o'quv fanlarini o'qitish uchun quyidagi o'zaro bog'liq metodlarga tayanishni asoslab bergan:

- 1) o'qituvchining darsga maxsus tayyorlanishi;
 - 2) o'quvchilarni darsga tayyorlash;
 - 3) har bir darsni eksperiment, ya'ni tajriba tariqasida o'tish;
 - 4) dars jarayonida o'quvchilarni muntazam kuzatib borish.¹⁴
- E'tibor berilsa, Montessorining mazkur tavsiyalarida integratsion o'qitishning negizlariga oid yondashuvlar mavjud. Keltirilgan misollardan ma'lum bo'ladiki, integratsion o'qitishning tarixiy-pedagogik ildizlari mavjud. Ularga asosan integratsion o'qitishning nazariy masalalariga doir muammolarni hal etish mumkin bo'ladi.

Integratsion o'qitishda o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida ta'lim oluvchilarga ma'lum bir sharoitda muayyan *ketma-ketlikda* ko'rsatgan ta'sirini va ta'lim natijasini nazorat

qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim o'rin tutadi.

Misol uchun, bugungi kunda kompyuter texnik o'quv vositasi umumiy o'rta ta'lim maktablarining ta'lim va tarbiya faoliyatini integratsion, ya'ni o'zaro bog'liqlikda masofadan turib tashkil etish imkonini beradi. Buning natijasida umumiy o'rta ta'lim maktablarining ta'lim va tarbiya faoliyatida quyidagilardan bahardorlik hamda o'zaro tajriba almashisha erishiladi:

- a) ta'lim va tarbiya jarayonini maktablararo bog'liqlikda tashkil etish;
- b) umumiy o'rta ta'lim maktablarining ta'lim va tarbiya faoliyatidagi muammolarini hamkorlikda hal etib borish;
- v) maktablarning ilg'or yutuqlarini o'zaro almashish tajribasini amalga oshirish.

Bularning barchasi integratsion o'qitishning keng imkoniyatlariga, vositalarga va usullarga ega ekanligini ko'rsatadi. Integratsion o'qitishning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri o'quv fanlarining *o'zaro aloqadorligini* ta'minlashidir. Mazkur masala tadqiqotimizning muhim muammolaridan biri bo'lib, uning hal qililgiga boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini o'qitish misolida ko'ylinroq e'tiboringizni tortamiz.

Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, o'quv fanlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi muammosini ilmiy-pedagogik jihatdan oqlona hal etish masalasi keyingi paytlarda pedagogik tadqiqotchilgimizda muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.¹⁵

Pedagog olimi B.Abdullayeva maxsus dissertatsiya tadqiqoti yaratib, integratsion o'qitishning fanlararo aloqadorlik omilini metodologik - didaktik jihatdan asoslab berganligini ta'kidlab o'tish

¹³ Ушинский К.И. *Труды по педагогике*. Спб.: "Генерал-Литература", 1959. 422-439 с.

¹⁴ Монтессори М. *Метод изучения ребенка*. // *История зарубежной педагогики*. Хрестоматия. - М.: "Просвещение", 1974. - с. 37-38.

¹⁵ Abdullayeva B. *Фундаментальные проблемы методологии дидактики*. - Дижиталтик асослари. - Тошкент: "Адибукият", 2006.

Bugungi kunda integratsion o'qitish masalasida oliy ta'lim tizimiga joriy etilgan o'qitishning kredit-modul tizimi muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston oliy ta'lim jarayonida o'qitishning ECTS kredit-modul tizimi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Bu borada "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida"gi Nizomda ko'rsatilganidek, har bir oliy ta'lim yo'nalishi yangi o'quv yilining boshlanishidan bir oy oldin o'quv materiallari, o'quv jarayoni va mashg'ulotlarni aniq asoslarini tayyorlashi lozim.

Shu jihatdan oliy pedagogik ta'lim muassasalarining Boshlang'ich ta'lim o'quv jarayonini ta'limning kredit-modul tizimi asosida tashkil etishga tayyorlash muhim hisoblanadi. Bunda quyidagi bosqichli ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Fanlar katalogini tayyorlash. Bunda quyidagi tashkiliy va me'yoriy ishlar yangi o'quv yilining boshlanishidan bir oy oldin amalga oshirilishi kerak:

- o'quv fanlarining rejasini va dasturlarini tayyorlash;

- majburiy va tanlov o'quv fanlarini belgilash hamda ularning o'quv materiallarini tayyorlash;

- majburiy va tanlov o'quv fanlarining taqdimotlarini o'tkazish.

O'quv fanlarining rejasini va dasturlarini tayyorlashda bir akademik o'quv yiliga 60 kredit mos kelishini hisobga olinishi kerak. Bunda o'quv rejasini va dasturlarida talabalarining kredit to'plashiga keng o'rin ajratiladi va o'qituvchi tomonidan uning nazorat turlari belgilanadi.

Majburiy va tanlov o'quv fanlarini belgilashda mutaxassislikka tayyorlashning asoslari va metodologiyasiga birlamchi ahamiyat beriladi.

Unga ko'ra, o'quv fanlari kurslar tizimida majburiy va tanlov fanlari shaklida belgilanib, bunda o'quv fanlarini o'zlashtirishning

monitorga izchilligi, uzviyligi hamda uzluksizligi hisobga olinadi. Shuni ta'kidlash lozimki, majburiy o'quv fanlari mutaxassislikning muvofiq tashkil qilgani holda o'qitishning birlamchi asosi hisoblanadi.

Ayni paytda, tanlov o'quv fanlari mutaxassislikning shartlariga xizmat qiluvchi fanlar turkumidan iboratdir. Shu muvofiq majburiy va tanlov o'quv fanlarini belgilashda teng muvofiq tamoyilga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Majburiy va tanlov o'quv fanlarining taqdimotlarini tashkiliy jihatdan samarali tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun fanlar bo'yicha ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilar quyidagi vazifalarni kutilgan darajada amalga oshirsa samarali hisoblanadi:

- fanlarning o'quv materiallarini qiziqarli, yangi yondashuvlarga boy va ma'lumotlarni to'ldirib borish xususiyatiga ega tarzda tayyorlash;

- fanlar o'quv materiallarini talabalar uchun qulay bo'lgan sharoitlarda joylashtirish va mazkur masala bo'yicha talabalar bilan bog'lanish, ularning savollari va murojaatlariga qonqarli javob berish;

- fanlar bo'yicha avgust oyida taqdimotlar o'tkazish.

Bunday yondashuv yangi o'quv yilining rejasini belgilab olishda muhim o'rin tutadi.

2. Tashkiliy ishlarni amalga oshirish. O'qitishning kredit-modul tizimida yangi o'quv yili boshlanishidan oldin unga oid tashkiliy ishlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- talabalarining shaxsiy ta'lim trayektoriyasini shakllantirish;
- to'lovga olish xizmatini amalga oshirish;
- transkriptga oid tadbirlarni bajarish.

Talabalarining shaxsiy ta'lim trayektoriyasini shakllantirishda ularning bir o'quv yili davomida kredit to'plash uchun amalga oshiriladigan xatti-harakatlari rejasini tuziladi.

Bunday rejani tuzishda bevosita talabalari bilan birgalikda ishlar amalga oshiriladi, unda talabani har bir o'quv fani bo'yicha kredit yig'ish faoliyati belgilab chiqiladi. Bunda professor-o'qituvchilar talabalarining maslahatchi sifatida ish ko'radi va ularning shaxsiy ta'lim trayektoriyasini aniq va sifati tuzishi uchun mas'ul hisoblanadi.

Chunki talaba o'quv yili oxirida aynan mana shu rejaga asosan o'quv fanlari bo'yicha belgilangan kreditlarni to'playdi yoki to'play olmaydi. Shu sababli yangi o'quv yili boshlanishidan oldin talabalarining shaxsiy ta'lim trayektoriyasini puxta shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim muassasasining 1-kursiga qabul qilingan talabalar uchun Ro'yxatga olish xizmati amalga oshiriladi. Unda professor-o'qituvchilar talabalarga ta'lim jarayoniga oid ma'lumotlar bazasi to'g'risida tushuntirish beradi, talabalarni o'quv jarayoni uchun ro'yxatga oladi va ularni bilimni nazorat qilishning turlari bilan tanishtiradi.

Bunda professor-o'qituvchilarning 1- kurs talabalari bilan maqsadli hamkorligi va ularni o'quv yiliga tayyorlash bo'yicha keng ko'lami ishlarni amalga oshirishi zaruriyat hisoblanadi.

Chunki oliy pedagogik ta'lim muassasasiga qabul qilingan talaba 1-kurs boshidayoq o'qitishning kredit-modul tizimi asoslari to'g'risida aniq tushuncha va ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim.

Professor-o'qituvchilar yangi o'quv yilining boshlanishidan bir oy oldin transkriptga oid xizmatlarni amalga oshiradi. Unga ko'ra, boshqa oliy ta'lim muassasasidan o'qishni ko'chirgan talabalarining kredit majmuasini o'rganadi va ko'chirilgan oliy ta'lim muassasasi o'quv fanlari bo'yicha to'plangan kreditlarni aniqlaydi.

Agar to'plangan kreditda ko'chirilgan oliy ta'lim muassasasi o'quv fanlari bo'yicha kredit to'plash farqi kuzatilsa, talabalar bilan muqor fanlar bo'yicha kredit to'plashga doir ta'limiy xizmatni amalga oshiradi.

Talaba farqli fanlar bo'yicha kredit to'plash vaqtini erkin belgilaydi va bu vaqt yangi o'quv yilining dastlabki oylarida amalga oshirilishi kerak.

3. Boshlang'ich oliy ta'limning o'quv jarayonini aniq tayyorlash.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonining boshlang'ich ta'lim yo'nalishida o'quv jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan ajralib turadi. Chunki boshlang'ich ta'lim ta'limning boshqa turlaridan pedagogik, psixologik va sotsiologik xususiyatlarga ega bo'lgan farqlanadi. Shu sababli o'qitishning kredit-modul tizimi asosida oliy boshlang'ich ta'limni tashkil etish uchun quyidagilarga amal qilish lozim:

- o'quv rejalarini, dasturlari va fanlari materiallarini o'qitishning an'anaviy va noan'anaviy shakllariga mos ravishda tayyorlash;
- o'quv jarayoniga oid tashkiliy ishlarni belgilashda istalmagan holatlarning oldini olishga doir o'quv jadvallarini shakllantirish;
- talabalar bilan an'anaviy va noan'anaviy mulqotlarning eng muvofiq shakllarini belgilash;
- o'quv jarayonini o'quv yili davomida muntazam monitoring qilib borish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Bunday yondashuv oliy boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil etilishda kutilgan samarani beradi.

Ta'kidlash lozimki, o'qitishning kredit-modul tizimida boshlang'ich oliy ta'lim jarayoni talabalar, ish berruvchilar, professor-o'qituvchilar va institut ma'muriyati o'rtasida ochiq mulqot shaklida talabaga yo'naltirilgan yondashuv asosida va ta'lim standartlarini inobatga olgan holda tashkil etiladi.

Ushbu jarayonda ko'p hollarda talabalarining talab va istaklari muvofiq darajada hisobga olinadi. Aynan mana shunday yondashuv

asosida boshlang'ich oliy ta'lim o'quv jarayonini tashkil qilish samarali hisoblanadi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, o'qitishning kredit-modul tizimi boshlang'ich oliy ta'lim jarayoni uchun keng imkoniyatlarga boy. Unga ko'ra, bunday imkoniyatlarning asosiy jihatlarni quyidagilar tashkil etadi:

- majburiy va tanlov fanlarining erkin tanlanishi;
- o'quv jarayonining an'anaviy va no'anaviy shakllarda amalga oshirilishi;
- professor-o'qituvchilar va talabalarining teng va keng muloqotga kirishishi;
- o'quv materiallariga yangiliklar, axborotlar va ma'lumotlarning kiritib borish imkoniyati mavjudligi;
- o'zlashtirish jarayonini erkin va jamoaviy baholash mexanizmlaridan foydalanish;
- kredit to'plashda murrakablikka duch kelgan talabalarga imkoniyatlar berilishi;
- o'quv jarayonining xalqaro ta'lim dasturlari talablariga mos tashkil etilishi.

Bunday imkoniyatlar boshlang'ich oliy ta'limni talab darajasida amalga oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, o'quv yili davomida o'quv fanlarini korreksiyalab borish imkoniyati nihoyatda muhimdir. Shu sababli boshlang'ich oliy ta'limni amalga oshiruvchi professor-o'qituvchilar, mutaxassislar va yordamchi xodimlarning o'qitishning kredit-modul tizimini chuqur o'zlashtirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib, boshlang'ich oliy ta'limning yangi o'quv yilini o'qitishning kredit-modul tizimi asosida tashkil qilishga doir ana shunday chora-tadbirlar majmui amalga oshiriladi. Bu tadbirlar belgilangan standartlar va qoidalar asosida amalga oshirilsa, o'quv yili kutilgan samarani beradi.

Buning uchun yuqorida ta'kidlangan Nizomga asosan o'quv yilining davomiyligi 36 hafta davom etishini hisobga olib, shundan 30 haftasi akademik davriga, 2 haftasi fanlarni tanlash uchun to'yyatdan o'tishga va 4 haftasi attestatsiyalarga ajratilishi qoidasiga binoan yangi o'quv yilini tashkil qilish kutilgan samarni beradi. Chunki, o'quv yilining davomiyligi o'quv jarayonini mavjud qoidalarga asosan tashkil etish va uning samarasiga erishish bilan belgilanadi.

Integratsion o'qitish ta'lim va tarbiya mazmunini chuqurlashtirish, ta'lim oluvchilarga keng ko'lami bilim berish, ta'lim dasturlarining o'zaro bog'liqligini takomillashtirish va ta'lim samaradiligiga erishishda barcha imkoniyatlardan uyg'unlikda foydalanish imkonini beradi.

4. *Integratsion o'qitishning samaradorligi.* Integratsion o'qitishda ta'lim muassasalari va ijtimoiy sharoitlarning barcha imkoniyatlaridan o'z vaqtida foydalanish muhim o'rin tutadi. Shu sababli bunday o'qitishning samaradorligini baholash masalasiga alohida e'tibor berish kerak.


Integratsion o'qitish samaradorligini baholashda bir necha omillarning muhim o'rin tutishini ta'kidlab o'tish joiz. Bunday omillarning eng asosiyari quyidagilardan iborat:

- 1) fanlarning bog'liqligi ta'lim mazmunidan kelib chiqib belgilanadi;
- 2) o'quv fanlari mavzularining ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi mantiq tamoyillari asosida amalga oshiriladi;
- 3) o'qitish jarayoni demokratik tamoyillarga asoslanadi;
- 4) o'quvchilarning o'zlashtirish jarayoni o'quv fanlari hisobida kuzatib boriladi;
- 5) ta'lim beruvchilar o'qitish jarayonida o'quv fanlari kesimi bo'yicha o'zaro hamkorlikda bo'ladi;
- 6) o'quvchilarning o'quv fanlarini o'zlashtirishi uyg'unlikka erishilgan mezonlar bo'yicha baholanib boradi.

Bularning barchasi integratsion o'qitishning samaradorligini baholash omillari bo'lib xizmat qiladi.

Integratsion o'qitishning samaradorligiga erishish uchun ta'lim va tarbiya ishtirokchilarining o'zaro hamkorligi, aloqadorligi hamda maqsad sari umumiy harakat qilishi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli bugungi kunda ta'lim muassasalarining ta'lim va tarbiya faoliyatini integratsion yondashuvlar asosida tashkil etish dolzarb bo'lib turibdi.

Shunday qilib integratsion o'qitishning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan uning *innovatsion* xarakterini belgilaydi. Mazkur masalani quyidagicha idrok etish mumkin:



1.1.1-rasm. Integratsion o'qitish xususiyatlari

1.2. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish muammosi

Klaster yondashuv asosida boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini va umuman umumiy o'rta ta'lim o'quv fanlarini integratsion o'qitish muammolarini tadqiq etish dolzarb bo'lib turibdi. Chunki O'zbekiston ta'lim tizimida o'qitish jarayonini milliy tajribalar asosida takomillashtirish kechmoqda. Bunda yangidan qabul qilinayotgan ta'limga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar tayanch vazifasini o'tamoqda. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 maydagi 287-sonli Qarori

36

bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi" da o'quv fanlarini o'qitish bilan ta'lim oluvchilarning quyidagi sakkiz malaka darajasini shakllantirish belgilab qo'yilgan:

- 1) mehnat yoki o'quv sohasidagi bilimlar berish;
- 2) mehnat yoki o'quv sohasidagi maxsus bilimlar berish;
- 3) mehnat yoki o'quv sohasidagi prinsiplar, jarayonlar va umumiy konsepsiya haqidagi umumiy maxsus bilimlar berish;
- 4) mehnat yoki o'quv sohasini umumiy qamrab oluvchi keng miqyosli amaliy va nazariy bilimlar berish;
- 5) mehnat yoki o'quv sohasidagi har tomonlama iqtisodlashtirilgan maxsus va nazariy bilimlar berish, bunday bilimlarning chegaralarini anglash;
- 6) nazariya va eng muhim tamoyillarni tanqidiy tashunishni o'z ichiga oluvchi mehnat yoki o'quv sohasidagi ilg'or bilimlar berish;
- 7) muayyan qismi mehnat yoki o'quv sohasida muhim bo'lgan va aralash sohalarida original va tanqidiy mulohazalar yuritishga asos bo'luvchi yuqori darajada ixtisoslashgan bilimlar berish;
- 8) mehnat yoki o'quvning ilg'or sohasida va sohalararo yuqori darajada ixtisoslashgan bilimlar berish.¹⁶

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini o'qitishda davlat ta'lim standartlari va malaka talablaridan tashqari ushbu Milliy malakalar ramkasida belgilab qo'yilgan malakalarga asoslanish kerak bo'ladi.

Chunki Milliy malakalar ramkasida belgilab qo'yilgan talablarga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilariga *umumiy, maxsus, nazariy, amaliy, ilg'or va yo'naltirilgan bilimlar* hajmini berish lozim ekanligi ta'kidlanib o'tilgan.

Bunda umumiy bilimlar tushunchasi o'quv fanlari bo'yicha to'liq ma'lumot berish, maxsus tushunchasi o'quv fanlari bo'yicha chuqurlashtirilgan axborot berish, nazariy tushunchasi o'quv

¹⁶ 9-Integratsion Pedagogika Muzeyi ma'muridagi ma'lumotlar. <http://www.ziyoue.com>.

fanlari bo'yicha o'quvchilarning ilmiy tafakkurini shakllantirish, amaliy tushunchasi o'quvchilarning o'quv fanlari bo'yicha o'zlashtirganlarini amaliyotda foydalana olish ko'nikmasini shakllantirish, ilg'o tushunchasi o'quv fanlari bo'yicha bilimlar ko'lamini kengaytirib borish hamda yo'naltirilgan tushunchasi o'quv fanlari bo'yicha o'quvchilarni qiziqishlarini oshirish ma'nolarini anglatishini eslatib o'tish joiz.

Shu sababli Milliy makalar ramkasi o'quv fanlarini integratsion o'qitish masalasi bo'yicha asoslardan biri hisoblanadi. Bunday bilimlarni dastlabki bosqichda boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv fanlari vositasida berishning innovatsion yondashuvlaridan biri integratsion o'qitish omilidir. Mazkur o'rinda e'tiboringizni boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini integratsion o'qitish zaruriyati masalasi tahliliga tortamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6- noyabr-dagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida boshlang'ich ta'limda integratsiya masalalarini kuchaytirish vazifasi qo'yilgan.

Chunki, integratsiya boshlang'ich ta'lim jarayonini, o'qitish vositalarini va tarbiya asoslarini uyg'unlikda amalga oshirish imkonini beradi. Shuningdek, boshlang'ich ta'limda integratsiya masalalari ilm-fan, ishlab chiqarish va amaliyot birligini ta'minlaydi.

Shu sababli hozirgi zamon boshlang'ich ta'limda integratsiya masalalarini hal qilish dolzarb bo'lib turibdi.

O'zbekiston boshlang'ich ta'limida integratsiyalash masalalarining asoslari quyidagilardan iborat:

-o'quv dasturlari va ularning mavzulari yagona Milliy o'quv dasturi asosida o'zaro bog'liqlikda ishlab chiqish;

- o'quv darsliklarini nazariy va amaliy, ijtimoiy va kompetensiya jihatdan uyg'unlashtirilgan tarzda yaratish;

- boshlang'ich ta'limda amalga oshirishda tegishli institutlar, laboratoriyalar va ilmiy markazlarning imkoniyatlaridan foydalanish;

- yagona Milliy o'quv dasturi asosida tizimli va reystrli bog'liqligini ishlab chiqish;

- boshlang'ich ta'lim va tarbiyaning uzviyligini ta'minlash;

- boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy, o'quv va metodik hamkorligini yo'lga qo'yish;

- o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini milliy va xorijiy tajribalar asosida uyg'un baholab borish.

Boshlang'ich ta'limda integratsiya quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini uyg'un shakllantirish;

- boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish;

- boshlang'ich ta'lim bitiruvchilarini Prezident va Ixtisoslashgan ta'lim muassasalariga hamkorlikda tayyorlash;

- boshlang'ich ta'lim o'quv mashg'ulotlarini turli shakllar asosida tashkil etish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasini kollis baholashni amalga oshirishda hamkorlik qilish.

Bu xususiyatlar boshlang'ich ta'limning samaradorligini integratsion jarayonlar asosida amalga oshirish imkonini beradi.

Boshlang'ich ta'limda integratsiya masalalari quyidagi shakllarga ega:

- sinflararo yagona tizimlik;

- maktabdagi sinflararo yagona butunlik va individuallik;

- hududlararo boshlang'ich ta'lim muassasalarining birlashuvi;

- Respublika miqyosida boshlang'ich ta'limning yagona hamkorligi.

Mazkur integratsion shakllar boshlang'ich ta'limning samaradorligini oshirishga amaliy turtki beradi.

Hozirgi zamon boshlang'ich ta'limida eng asosiy masalalardan biri bolalarni zamon talablari asosida tarbiyalashdir.

Shu sababli yangi "Tarbiya" fani ishlab chiqilib amaliyotga joriy etildi.

Mazkur fan vositasida tarbiya masalasida quyidagi integratsion jarayonlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- o'quvchilar tarbiyasida oila, jamoatchilik va mutaxassislar guruhlarining o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish;
- tarbiyaviy jarayonning yagona tizimini shakllantirish;
- tarbiyalanganlik darajasini baholashning uyg'unlashgan indikatorlarini ishlab chiqish;
- tarbiya jarayonida nazariy va amaliy hamkorlikning uyg'unlashuviga erishish.

Boshlang'ich ta'limda integratsiya masalalari maktab jamoasi bosqichida hal qilinishi kutilgan samarani beradi. Shu sababli amalga kiritilayotgan yagona Milliy o'quv dasturining asosiy mohiyati ta'lim va tarbiya jarayonini integratsiya, ya'ni o'zaro birlikda tashkil qilish asoslari tashkil qiladi. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim muassasalari va umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish lozim bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limda integratsiya masalalarini hal etish uchun nazariya va amaliyot uyg'unligiga asoslanish kerak. Bu borada olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqdastirish va ularning tajribalaridan foydalanish taqozo etiladi.

Boshlang'ich ta'limda integratsiya masalalarini hal qilishda ta'lim, o'qitish va tarbiya jarayonlarining birligi e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Aynan mana shu boshlang'ich ta'limda integratsion jarayonlarni kutilgan darajada amalga oshirish imkonini beradi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim bosqichida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standart"ga muvofiq, quyidagi o'quv fanlari o'qitilmoqda:

1-jadval

T/r	O'quv fanlari	Sinflar									Haftalik umumiy soat
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	
	Davlat ixtiyoridaagi soatlar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	
1.	O'qish va ona tili	8	8	10	10						36
2.	Husnixat	1	1	1	1						4
3.	O'zbek tili/rus tili	2	2	2	2						6
4.	Chet tili	2	2	2	2						6
5.	Matematika	5	5	5	5						20
6.	Tarbiya	1	1	1	1						4
7.	Musiqqa madaniyati	1	1	1	1						4
8.	Tasviriy san'at	1	1	1	1						4
9.	Texnologiya	1	1	1	1						4
10.	Atrofimizdagi olam va Tabiatshunoslik	1	1	1	1						4
11.	Jismoniy tarbiya	2	2	2	2						8
	Maktab ixtiyoridaagi soatlar	0.5									0.5

Diqqat qilinsa, mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim tizimida keyingi ta'lim bosqichlarida o'qitiladigan o'quv fanlarining asosiy negizlari o'qitiladi. Bu o'quv fanlari quyidagi tamoyillar asosida tanlangan va amaliyotga kiritilgan:

*birinchi*dan, o'quv fanlarini tanlashda milliy pedagogik tajriba hisobga olingan;

*ikkinchi*dan, boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari TIMES, PISA, TIMAM kabi xalqaro ta'lim dasturlari talablariga mos;

uchinchidan, mazkur o'quv fanlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh, jismoniy, aqliy, ruhiy va estetik imkoniyatlariga mos keladi;

to'rtinchidan, o'quv fanlari umumiy ta'limning keyingi bosqichlarida o'qitiladigan o'quv fanlariga o'quvchilarni tayyorlashga yo'naltirilgan;

beshinchidan, o'quv fanlarini o'zlashtirishni chuqurlashtirish uchun maktab hisobida ham soat qoldirilgan.

Shu sababli mazkur o'quv fanlarini integratsion o'qitish bilan ularning ta'lim sifati va samaradorligiga erishish dolzarb bo'lib turibdi.

Boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini integratsion o'qitish zaruriyati quyidagilar bilan belgilanadi:

1. O'quv fanlariaro bog'liqlik zaruriyati.

Boshlang'ich ta'limda o'qitilayotgan o'quv fanlari diqqat qilinsa, quyidagi *turkum* fanlarga bo'linadi:

- 1) aniq fanlar (Matematika, Texnologiya, Jismoniy tarbiya);
- 2) tabiiy fanlar (Atrofimizdagi olam, Tabiatshunoslik);
- 3) gumanitar fanlar (Husnixat, O'qish va ona tili, Tasviriy san'at, Musiqqa madaniyati, Tarbiya).

Mazkur turkumdagi o'quv fanlarini boshlang'ich ta'limda o'qitish bo'yicha mamlakatimizda o'ziga xos tajriba mavjud. Ayni paytda, ularning o'qitilishini yanada takomillashtirish va o'qitish samaradorligini oshirishga erishish uchun fanlararo integratsion o'qitishga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

E'tibor berilsa, Matematika, Tenologiya va Jismoniy tarbiya fanlari o'quvchida mustaqil fikrlash, mehnat qilish va jismoniy etuklik ko'nikmalarini shakllantiradi.

Atrofimizdagi olam va Tabiatshunoslik fanlari o'quvchilarga dastlabki bosqichda olam, tabiat, o'simlik va hayvonot dunyosi to'g'risida bilimlar beradi hamda ularning ekologik ko'nikmasini tarkib topitiradi.

Husnixat, O'qish va Ona tili, Tasviriy san'at, Musiqqa madaniyati

hamda Tarbiya fanlari o'quvchilarning yozish, o'qib tushunish fikrini ravon ifodalash, layoqatini rivojlantirish, estetik didini shakllantirish va axloqiy jihatdan tarbiyalanish vazifalarini amalga oshiradi. Shu sababli boshlang'ich ta'limda o'qitish jarayonini o'quv fanlariaro bog'liqlikda tashkil etish zaruriyat bo'lib turibdi.

2. O'quv fanlarining mavzulararo bog'liqlik zaruriyati.

Aniq, tabiiy va gumanitar turkumlardagi o'quv fanlarining mavzulararo bog'liqligini ta'minlash zaruriya bo'lib turibdi. Bu borada muayyan tajribalar ham mavjud.

Misol uchun, O'qish va ona tili o'quv fanida o'quvchilarni bayon yoki insho yozishga tayyorlashda o'qish matnlari bo'yicha gap tuzish va tuzilgan gapning to'g'riligini ona tili grammatikasi asosida aniqlash metodikasi amalda bo'lib kelmoqda.

Mana shunday tajribadan o'tgan metodikalarni rivojlantirib, boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarining mavzulararo bog'liqligini tarkib topitirish mumkin. Bunday yondashuv o'ziga xos ta'limiy imkoniyatlarini beradi.

O'quv fanlarining mavzulararo bog'liqligini ta'minlash ishiga maxsus yondashish taqozo etiladi. Buning uchun quyidagilarga amal qilish kutilgan samarani beradi:

1) o'quv fanlari mavzularini tuzuvchilarning o'aro hamkorlik qilishi;

2) muayyan fan bo'yicha mavzularni tanlashda takroriylikka yo'l qo'ymaslik va mavzularning ta'limning keyingi bosqichlarida davom ettirilishini hisobga olish;

3) tanlangan mavzularni ilmiy-pedagogik ekspertizadan o'tkazish.

Bunday yondashuv boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarining mavzulararo bog'liqligini samarali tashkil etish imkonini beradi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining

Ta'lim markazi bu borada tashabbuskor va amalga oshirish vazifasini bajarishi kerak.

3. O'quv fanlari darsliklari o'quv materiallarining o'zaro bog'liqligi zaruriyati.

Mazkur masala ham dolzarb bo'lib, uning vositsida o'quv fanlari darsliklaridagi o'quv materiallarining bir-birini mazmunan to'ldirish, bilimlar va ma'lumotlarini boyitib borish hamda har bir o'quv materialni vositasida yangi axborotlarni berishni taqazo etadi.

Darsliklar materiallarining integratsiyalashuvi ulardagi axborot-bilimning yangilab borilishiga, ayniqsa, darsliklarning elektron-modulli variantlarini yaratishda muhim o'rin tutadi.

Boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari darsliklari materiallarining o'zaro bog'likligini tarkib topirishda bizningcha, quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) darsliklarning mutaxassis va amaliy tajribali o'qituvchilar ekspertizasidan o'tkazish;
- 2) turdosh o'quv fanlari materiallarini ko'zdan kechirish va takroriylikka yo'l qo'ymaslik;
- 3) darsliklarning o'quv materiallarini muntazam takomillashtirib borish.

Bizningcha ularga amal qilish o'quv fanlari darsliklari materiallarining o'zaro bog'liqligini ta'minlashga olib keladi.

Zero boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarining integratsion ana shu zaruriyatlari pedagogik nuqtai nazardan muhim ahamiyatga ega. Shu sababli taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida mazkur masalaning ilmiy va nazariy jihatlarini ishlab chiqilishi taqazo etiladi.

Mamlakatimizning yangi taraqqiyot bosqichida boshlang'ich sinf o'quvchilariga chuqurlashtirilgan bilim berish va ularni o'zlashtirgan bilimlarini qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirish muhim hisoblanadi.

Bu borada o'quv fanlarini integratsion o'qitish qo'l keladi. Chunki chuqurlashtirilgan bilim berishda fanlar va ularning mavzularini o'zaro bog'liqligi muhim hisoblanadi.

Shuningdek, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirishda fanlar hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini integratsion o'qitish zaruriyati jamiyatimizning ehtiyoji bilan bog'liqdir. Bu ehtiyojning asosiy jihatlarini quyidagilar tashkil etadi:

- 1) boshlang'ich sinf o'quvchilarining aniq, tabiiy va gumanitar fanlar bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishiga erishish;
- 2) boshlang'ich sinf o'quvchilarining mazkur fanlar bo'yicha o'zlashtirgan bilimlari asosida mustaqil fikrlashi va dunyoarashini shakllantirish;
- 3) boshlang'ich sinf o'quvchilarini ushbu fanlar bo'yicha keyingi ta'lim bosqichlarida o'qishi uchun kutilgan darajada tayyorlash;
- 4) boshlang'ich sinf o'quvchilarining bu fanlar bo'yicha layoqatini guruhli tarzda rivojlantirish.

E'tibor berilsa, bu ehtiyojlarni amalga oshirish bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarini jahondagi tengdoshlari gatorida ta'limiy jihatdan kutilgan darajada tayyorlashga erishiladi. Boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini integratsion o'qitish zaruriyatida o'quvchi shaxsini bilish masalasi ham muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi zamon o'zbek "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida" boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'quvchilar shaxsini bilishi masalasi muhim muammolardan biri hisoblanadi. Chunki bu masala boshlang'ich ta'limda ta'lim va tarbiyaning samaradorligi bilan bog'liqdir.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarida "Ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash" vazifasi

belgilangan. Tabiiyki, bu vazifa avvalo 7-11 yoshli o'quvchilar shaxsini oqlona bilishni taqozo etadi.

Pedagog olimlar boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'quvchilar shaxsini bilishga doir bir necha yondashuvlarni bayon qilishgan. Jumladan, o'quvchi shaxsini bilishda quyidagilarga e'tibor berish tavsiya etiladi:

-o'quvchining bilim darajasini aniqlash;

-o'quvchining his-tuyg'ulariga e'tibor berish;

-o'quvchining xulq-atvoriga diqqat qilish.

Buning natijasida o'quvchi shaxsiga oid xususiyatlarni bilib olish mumkin. Ayni paytda bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsini bilishda quyidagilarga e'tibor berish maqsadgamuvoifiq bo'ladi:

1. O'quvchining qiziqish va intilishlarini o'rganish;

2. O'quvchining bilimlarga qanday o'zlashtirishini aniqlash;

3. O'quvchining ma'naviy olamiga e'tibor berish;

4. O'quvchining xarakteriga diqqat qilish.

Bunday yondashuv o'quvchi shaxsini bilish va unga asosan 7-11 yoshli shaxsni ma'naviy barkamollik hamda intellektual etuklik yo'naltirish ishining samaradorligiga asos bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'quvchilar shaxsini bilish usullari ko'p. Bunday usullarning asosiylarini quyidagilar tashkil qiladi:

-mulohot;

-subbat;

- o'quvchining oilaviy sharoiti bilan tanishish;

- ijtimoiy so'rovnoma.

Bu usullar o'qituvchiga o'quvchilar shaxsini pedagogik, psixologik va estetik jihatdan bilish imkoniyatlarini beradi.

"Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi"da o'quvchi shaxsini chuqur bilish ta'lim va tarbiyaning ijtimoiy talablarni bajarish bilan belgilanadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim davlat standartlarida

boshlang'ich sinf o'qituvchisining quyidagilarga qat'iy amal qilishi belgilab qo'yilgan:

-o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;

-boshlang'ich ta'lim mazmunining insonparvarligi;

-boshlang'ich ta'limning shaxs extiyojlariga mosligi.

Bu talablar boshlang'ich sinf o'qituvchisini o'quvchilar shaxsini qanday bilib olishga yo'naltiradi. Unga ko'ra, o'quvchi shaxsi dahlsiz va ustuvor qabul qilinadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining eng yaqin kishisi va do'sti bu-o'qituvchidir.

Pedagogik tadqiqotlar va tajribalar boshlang'ich sinf o'qituvchilar ota-onalar, katta yoshlilar va o'rtoqlariga nisbatan o'qituvchini o'ziga yaqin tutishini ko'rsatadi. Bu omildan boshlang'ich sinf o'qituvchisi oqlona foydalanishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilar shaxsini bilishda quyidagi xususiyatlarni hisobga olishi lozim:

-7-11 yoshli o'quvchilar shaxsi jismoniy, aqliy va ruhiy rivojlanish jarayonida bo'ladi;

-bu yoshdagi o'quvchilar turli g'oyalalar, fikrlar va odatlarni tez qabul qilishi bilan xarakterlanadi;

-mazkur yoshdagi o'quvchilar ishonuvchan, ta'sirchan va o'zgaruvchan bo'ladi.

Bu xususiyatlarni hisobga olish boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsini to'g'ri bilishga asos bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'quvchi shaxsini bilishda uch yordamchisi mavjud:


-pedagogik tavsiyalar;

-psixologik tahlil (o'qituvchilar va psixolog yordami);

-ijtimoiy muhit (ota-onalar ko'magi).

Zero, boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'quvchilar shaxsini bilishi o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

E'tibor bering:



1.2.1-rasm. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'quvchi shaxsini bilish tizimi

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'qituvchisining shaxsini bilish ta'lim va tarbiyaning samaradorligi bilan belgilanadi.

Boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini integratsion o'qitishda o'qituvchining profессиogrammasi ham ahamiyatga ega.

O'zbekiston oliy ta'lim rivojida boshlang'ich ta'limni rivojlantirish va uning mazmunini kuchaytirish muhim o'rin tutadi. Bu borada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyati ayniqsa asosiy omillardan hisoblanadi. Shu sababli keyingi paytlarda boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'yilayotgan talablarning oshib borayotganligi ko'zga tashlanmoqda. Mazkur masalada bizningcha, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining profессиogrammasini shakllantirish kutilgan samarani beradi.

Professiogramma – bu shaxsning kasbiy, nazariy va amaliy jihatdan etuklik belgisi bo'lib, u har bir kasb-hunarga nisbatan alohida belgilanadi. Shu ma'noda biz boshlang'ich sinf o'qituvchisining profессиogrammasini quyidagilar tashkil etadi deb hisoblaymiz:

- nazariy bilimga egalik;
- kasbiy etuklik;
- ijtimoiy faollik.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining nazariy bilimlarga egaligi quyidagilar bilan belgilanadi:

- ma'lumotga egalik;
- boshlang'ich ta'lim asoslari bo'yicha bilimga egalik;
- ta'lim nazariyasini bilish;
- o'qituvchilik kompetensiyasiga egalik.

Aynan mana shu mezonlar asosida boshlang'ich sinf o'qituvchisining nazariy bilimi darajasini aniqlash va uni rivojlantirish yo'llarini belgilash mumkin.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy etukligi quyidagilar bilan belgilanadi:

- ta'lim-tarbiya metodlarini bilish;
- pedagogik ta'limot va nazariyalarni egallash;
- individual ta'lim-tarbiya metodiga ega bo'lish;

-o'zining layoqatini namoyon qila olish.

Bu mezonlar boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy etukligini namoyon qiladi va ular asosida o'qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari, tajribalari va faoliyatini yanada rivojlantirish yo'llari ishlab chiqiladi.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchisining *ijtimoiy faolligi* asosiy masalalardan biri bo'lib turibdi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijtimoiy faollik asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

-o'quvchilarni ijtimoiylashtirishni bilish;

-7-11 yoshli shaxslarning ongini, tushunchalarini shakllantirish va ularni jamoa sifatida tarkib toptirish;

-boshlang'ich sinf o'quvchilarini ideal maqsadlarga yo'naltirish.

Bu mezonlar boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy faolligini aniqlash va ularning ijtimoiy ongi, darajasi va madaniyatini rivojlantirish yo'llarini belgilashda muhim omil hisoblanadi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisining professionallasmasida bu uch masala asosiy o'rin tutadi. Shu sababli mazkur masalada quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

-oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini professionallashtirish asoslari bilan tanishtirish va ularni belgilanayotgan mezonlarni shakllantirish;

-bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini professionallashtirish asoslari, yondashuvlari va nazariy omillari bilan keng tanishtirish, bu boradagi yondashuvlarni tushuntirish;

-bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'zi ustida ishlashga ko'niktirish;

-pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi vositasida amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining professionallashtirishni rivojlantirib borish;

-eng etuk va professional boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini ommalashtirish.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'qituvchilarining professionallashtirishini o'rganib borish, nazorat qilish va ularning monitoringini yuritishda qo'llaniladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim tizimi halqaro andozalarga mos ravishda rivojlantirilmoqda va pedagogikamiz tarixida yangi bo'lgan nodavlat boshlang'ich ta'lim muassasalari yuzaga kelmoqda. Bu ikki omil yaqin kelajakda boshlang'ich sinf o'qituvchilari borasida raqobatni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli bundan keyin professional va shakllantirilgan professionallashtirish maqsadlariga mos boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tanlash yuzaga keladi. Aynan mana shu masala oliy pedagogik ta'lim jarayonida va amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari orasida to'g'ri tushuntirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xalqaro ta'lim tajribalari shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida va raqobatbardosh ta'lim tizimida ongli va to'g'ri shakllantirilgan professionallashtirish maqsadlarini ijtimoiy-pedagogik muhofaza qilishning muhim omili hisoblanadi. Shu sababli pedagogik adabiyotlarda aniqlashtirilgan va qulay professionallashtirishni taqdim etish, ularni bo'lajak o'qituvchilarga tushuntirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hoshlang'ich sinf o'qituvchisining professionallashtirishini shakllantirishda bizningcha, quyidagilarga asoslanish kutilgan natijalarni beradi:

-milliy pedagogik merosda ifodasini topgan ta'lim va tarbiyaga oid talablar;

-boshlang'ich ta'limga doir davlat talablari va standartlari;

- o'qituvchilarning ijtimoiy huquqi, ongi va dunyovqarashi;
 - pedagogik ilmiy tadqiqotlarda aniqlangan farazlar, tashhislar va yondashuvlar majmu.

Aynan bu asoslar u gadar murakkab bo'lmagan boshlang'ich sinf o'qituvchisining professiogrammasini ishlab chiqishda qo'l keladi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, har bir mamlakatda o'zining mintaliteti va ta'lim rivoji asoslaridan kelib chiqib o'qituvchilar professiogrammasi ishlab chiqilgan. Shu ma'noda bizningcha, boshlang'ich sinf o'qituvchilarning professiogrammasini ishlab chiqishda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- boshlang'ich ta'limga oid o'ziga xos milliy tajribamizga asoslanish;

- professiogramma mezonlarini oddiydan murakkab tomon tamoyiliga asosan tuzish;

- ishlab chiqilgan professiogrammani nazariy-amaliy tajribadan o'tkazish;

- shakllantirilgan professiogramмага doir jamoatchilikning fikrini o'rganish va hisobla olish.


Bunday yondashuv nazari, kasbiy va amaliy jihatdan o'ziga xos boshlang'ich sinf o'qituvchilari professiogrammasini ishlab chiqishda asos bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan taraqqiyot jarayoni va boshlang'ich ta'limni halqaro andozalarga mos ravishda rivojlantirish harakatlari har tomonlama etuk boshlang'ich sinf o'qituvchisiga ehtiyojni oshiradi. Shu sababli ilmiy va amaliy tajribadan o'tgan professiogramma asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashga o'tish kutilgan samarani beradi. Buning uchun mamlakatimizning oliy pedagogik ta'lim muassasalari gnesologik, texnologik va metodologik imkoniyatga ega ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Shuningdek,

mazkur ta'lim muassasalarida professional professor-o'qituvchilar faoliyat yuritmoqda. Bu omillarning barchasi boshlang'ich sinf o'qituvchisi professiogrammasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish imkonini beradi.

Hularning barchasi boshlang'ich ta'limda o'quv fanlarini integratsion o'qitish zaruriyatini belgilaydi. Shu sababli mazkur masalani to'liq idrok etish taqazo etiladi.

E'tibor bering:



1.3.2- rasm. Boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini integratsion o'qitish omillari

Birinchi bob bo'yicha xulosa

1. Yangi O'zbekistonning hozirgi taraqqiyoti bosqichida barcha sohalarda qatorida boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitishning pedagogik muammosini o'rganish dolzarb bo'lib turibdi. Bu masala ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar jirosini ta'minlash, innovatsion taraqqiyot talablari va jamiyatning ehtiyoji bilan to'liqlanadi.

2. Ta'lim tizimida integratsion o'qitish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uning mazmunini integrasiya tushunchasi ma'nosi, integratsion o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarga egaligi va integratsion o'qitish kutilgan samarani berishi tashkil etadi.

3. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitishning zaruriyati fanlararo bog'liqlik, o'quv fanlari mavzularining o'zaro bog'liqligi va darsliklarning o'quv materiallarini uyg'unlik asosida takomillashtirib borishdan iborat. Bunda boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini aniq, tabiiy va gumanitar turkumlarga bo'lib integratsion o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi.

4. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish o'quvchilarga chuqurlashtirilgan bilim berish, mustaqil fikrlash va dunqarashini shakllantirish hamda ularni ta'limning keyingi bosqichlariga munosib tayyorlash bo'yicha keng imkoniyatlarga ega bo'linadi. Chunki o'quv fanlarini integratsion o'qitish o'quvchilarning aniq, tabiiy va gumanitar fanlar uyg'unligi asosida layoqatini rivojlantirib borishga asos bo'ladi.

II BOB. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KLASTER YONDASHUV ASOSIDA O'QUV FANLARINI INTEGRATSION O'QITISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH SHAKLLARI

2.1. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini turkumlashtirib o'qitish integratsion shakli

Respublika ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim bosqichini ilgungil kun talablari asosida rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish va o'zlashtirganlarini amaliy qo'llay olish jihatidan kutilgan darajada ko'nikmaga ega bo'lishi bilan ta'limning keyingi bosqichlarida faol o'qitishi ma'lum. Shu sababli pedagogik ilmiy-tadqiqotchilikda boshlang'ich ta'limga zamonaviy yondashuvlarni tadbiq etish masalalari bo'yicha o'ziga xos ilmiy ishlarnalar yaratilmoqda. Bu borada yangidan ishlab chiqilib amalga kiritilgan Milliy ta'lim dasturi dasturlanmal bo'lmogda.

O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimining hozirgi rivojlanish bosqichida o'qitishning turli usullaridan foydalanish dolzarb bo'lib turibdi. Shu ma'noda umumiy o'rta ta'limning negizi bo'lgan boshlang'ich ta'limni amalga oshirishda sifat va samaradorlikka olib keluvchi usullardan foydalanish, bunday usullarning metodologiyasini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Chunki har bir usul zamonaviyligi, qulayligi va osonligi bilan ta'limni rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Bu borada boshlang'ich ta'limda klaster usulidan foydalanish va uning mexanizmlarini ishlab chiqish taqozo etiladi.

Boshlang'ich ta'limning o'qitishning klaster usulidan foydalanish ilmiy, innovasion va metodik tajribalarning uyg'unligiga tayyanadi. Bunda nazariya, amaliyot va istiqbolli yo'nalishlar birgalikda o'qitishning sifat va samaradorligiga jiboy hisab etilishi bilan ahamiyatga ega bo'ladi. Shu jihatdan bu o'rinda

boshlang'ich ta'limda klaster usulidan foydalanishning mexanizmlariga e'tiboringizni tortamiz.

Birinchi mexanizm: o'quv darsliklarini yangi variantini tayyorlash. Bunda boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan o'quv fanlari quyidagi bloklar bo'yicha elektron-modulli usulda tayyorlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- gumanitar fanlar;
- tabiiy fanlar;
- aniq fanlar.

Mazkur turkumlarda tayyorlanadigan yangi avlod darsliklari mavzu, matn va vositalar jihatidan turkumli-umumiy xususiyatga ega bo'ladi. Misol uchun, "O'qish va ona tili" o'quv fani bilan "Tarbiya" o'quv fanining materiallari bir-birini to'ldiruvchi va uzviy xususiyatga ega tarzda tuzilishi kerak. Shu tarzga har bir blokdaqi fanlar darsliklari o'zaro uyg'unlik tamoyili asosida tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan mamlakatimiz boshlang'ich sinffari o'quv fanlari bo'yicha yangi avlod darsliklari tayyorlanib, 2022-2023-o'quv yildan boshlab amaliyotga joriy etildi. Bunda quyidagi yangi metodikaga asoslanildi: PISA, PIRLS, TIMSS, EGMA va EGRA xalqaro dasturlaridagi namunaviy vazifalar darsliklar mazmuni uchun asos qilib olingan, darsliklarda ta'lim oluvchilarning quyidagi 4 ko'nikmasi: tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashish, jamoada ishlash va o'zlashtirganlarni amaliyotda qo'llay olishni shakllantirishga yo'naltirilgan. Dastlabki tahlillarga ko'ra, mazkur darsliklar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtiri darajasi 88 foizni tashkil etgan va amaldagi darsliklar bo'yicha o'zlashtirish esa 67 foiz bo'lgan. Shu sababli 2023-2024 o'quv yildan boshlab ushbu yangi metodika asosida tayyorlangan yangi avlod dasturlari 5-11 - sinflarga ham joriy etiladi.

Ushbu misoldan ma'lum bo'ladiki, boshlang'ich ta'limda o'qitishning klaster usulidan foydalanish uchun birinchi

mexanizm - o'quv darsliklarini yangi variantini tayyorlash kutigan munarni beradi.

Ikkinchi mexanizm: o'quv darsliklarini tayyorlash. Bunda quyidagi mexanizmlarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- fanlar bo'yicha ilmiy mutaxassislar imkoniyatlaridan foydalanish;
- tanqli va tajribali pedagoglarning imkoniyatlaridan foydalanish;
- amaliy faoliyatdagi o'qituvchilarning imkoniyatlaridan foydalanish.

Mazkur mexanizmda har bir ishtirokchining vazifasi mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- Ilmiy xodimlar vazifalari:
 - darsliklarning mavzularini ilmiy asoslash va ular uchun ilmiy faktlarni taqdim etish;
 - darsliklarning ilmiy apparati va abrobatatsiyasini amalga oshirish;

-darsliklarning ilmiy metodologiyasini rivojlantirib borish.

- Tajribali pedagoglarning vazifalari:
 - darsliklarning metodologik asoslarini ishlab chiqish;
 - darsliklarning matnini yozish va joylashtirish;
 - darsliklarning metodik jihatlarini nazorat qilib borish.

Amaliy faoliyatdagi o'qituvchilarning vazifalari:

- darsliklarni tajriba-sinov ishlardan o'tkazish;
 - darsliklarning sifati bo'yicha xulosalarni berish;
 - darsliklarni takomillashtirishga dori amaliy takliflarni berib borish.
- E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limning yangi avlod darsliklarini klaster usulida tayyorlashning o'ziga xos mexanizmi ko'pchilikning o'zaro hamkorligi va tajribasi asosida yaratiladi. Shu sababli bunday darsliklar nazariy, metodik va texnologik jihatdan mukammal bo'ladi.

Uchinchi mexanizm: boshlang'ich ta'limni rivojlantirish.

Bunda quyidagi mexanizmlarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

-ilmiy tashkilotlar bilan boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning yangi ilmiy-metodologik asoslarini rivojlantirib borish;

-pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari bilan boshlang'ich ta'limning muammolarini o'rganib borish, ularning echimlari bo'yicha nazariy-metodik ishlanmalar yaratish va amaliyotga joriy etish;

-boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan boshlang'ich ta'limning yutuqlari va kamchiliklarini monitoring qilib borish hamda bu borada istiqbolli yo'nalishlarni belgilash.

Mazkur mexanizm vositasida boshlang'ich ta'limni muddati, istiqbolli va bosqichli rivojlantirib borish imkoniyatlariga ega bo'linadi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limda klaster usulidan foydalanishning *ushbu uch muhim mexanizmlari* mavjud bo'lib, bugungi kunda mazkur mexanizmlardan foydalanishning asoslarini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Shu sababli bu borada bizningcha, quyidagilarni yo'lga qo'yish kutilgan samarani beradi:

-boshlang'ich ta'limda klaster usulidan foydalanish muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar mavzularini belgilash va ular bo'yicha izlanishlarni yo'lga qo'yish;

-boshlang'ich ta'limda klaster usulidan foydalanish bo'yicha amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqot ishlariga talabalarini hamda amaliy faoliyatdagi oliy ma'lumoti boshlang'ich sinf o'qituvchilarini keng jalb etish;

-CHDPUning "Maktab-laboratoriya" klaster usulini ommalashtirish va undan amaliy faoliyatda keng foydalanish;

-boshlang'ich ta'limda klaster usulidan foydalanishga doir ilmiy ishlanmalar, o'quv adabiyotlari va texnologik jarayonlarni monitoring qilib borish.

Bu tadbirlarni amalga oshirish natijasida boshlang'ich ta'limda klaster usulidan foydalanishning mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'linadi.

Klaster usuli boshlang'ich ta'limning sifatini kuchaytirish, o'quv fanlari darsliklarini takomillashtirish va boshlang'ich ta'limning amaliy natijalariga erishishda hamkorlik tamoyiliga tayanishi bilan muhim ahamiyatga ega. Shu sababli mazkur usuldan foydalanishning mexanizmlarini ishlab chiqishda biz ilmiy kodimlar, tajribali pedagoglar va amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy, amaliy va metodik hamkorligini yo'lga qo'yish kutilgan samarani beradi deb hisoblaymiz.

Boshlang'ich ta'limda klaster usulidan foydalanishning mexanizmlari bo'yicha amaliy tajribalar endi shakllanmoqda. Shu sababli bu borada ilmiy va amaliy pedagogik tajriba sinov ishlarini o'tkazib borishdan cho'chimaslik lozim. Bunda faqat professor-o'qituvchilar, talabalar va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faolligi, hamkorligi hamda aloqadorligini kuchaytirish taqozo etiladi. Asosiy maqsad boshlang'ich ta'limni ilmiy, metodologik va texnologik jihatdan rivojlantirishda klaster usulidan foydalanishdir. Shu sababli ta'limni tashkil etuvchilar, ta'lim oluvchilar va ta'limni amalga oshiruvchilarning manfaatlari klaster usulida teng ta'minlanadi.

Boshlang'ich ta'limda klaster usulidan foydalanishning mexanizmlarini ishlab chiqishda ilmiy kuzatishlar, individual tajribalar va amaliy natijalarga asoslanish kutilgan samarani beradi. Bu borada ilmiy-amaliy tadqiqotchilikni yo'lga qo'yish dolzarb bo'lib turibdi. Mazkur o'rinda e'tiboringizni boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini *turkumlashdirib o'qitish integratsiyasi* masalasi ta'limga tortamiz.

Mazkur masalalarni hal etishda boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish uchun innovatsion usullardan biri klaster yondashuviga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini turkumlashtirib o'qitishda quyidagi uch asosga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1) aniq fanlarni o'qitish integratsiyasi;

2) tabiiy fanlarni o'qitish integratsiyasi;

3) gumanitar fanlarni o'qitish integratsiyasi.

Mazkur turkumlashtirib o'qitishning nazariy masalalari belgilab olinishi kerak. Shu jihatdan bizning yondashuvimizga ko'ra, mazkur turkumlashtirishni nazariy masalalarini belgilashda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- turkumlardagi har bir fanning fan bo'yicha davlat ta'lim standartlari va malakalari, o'quv reja va dasturlarida qo'yilgan talablarning bajarilishi;

- turkumdagi fanlarning o'zaro bog'liqlikda o'qitilishi;

- turkum fanlari bo'yicha qo'yilgan maqsadlarga erishish.

Shu sababli mazkur asoslarga ko'ra turkumdagi fanlarni integratsion o'qitish bo'yicha umumiy talablar shakllantirilishi kutilgan samarani beradi. Boshlang'ich ta'limda aniq tabiiy va gumanitar fanlarni integratsion tarzda o'qitishning umumiy talablari bizning yondashuvimiz bo'yicha quyidagilardan iborat:

- fanlar bo'yicha belgilangan o'quv reja va dasturlarining to'liq bajarilishiga erishish;

- har bir o'quv fani bo'yicha o'quvchilarning chuqur nazariy bilim va amaliy ko'nikmaga ega bo'lishga erishish;

- fanlar bo'yicha mavzular va o'quv materiallarining takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik;

- har bir fan bo'yicha iqtidori o'quvchilarni aniqlash va tarbiyalash.

Bu umumiy talablar o'quv fanlarini turkumlashtirib o'qitishda muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan bu o'rinda fanlarni turkumlashtirib o'qitishning nazariy masalalariga diqqatingizni tortamiz.

1. Aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish. Bugungi kunda mamlakatimiz boshlang'ich ta'limida Matematika va Jismoniy tarbiya aniq o'quv fanlari o'qitilmoqda. Mazkur fanlarni integratsion tarzda o'qitishning nazariy asoslari bizning yondashuvimiz bo'yicha quyidagicha:

A) Matematika fanini o'qitish integratsiyasi:

- mavzularni ketma-ketlik va mantiqiy asosda sinflar kesimida joylashtirish;

- mavzularni tanlashda o'quvchilarning rivojlanish dinamikasiga, ya'ni 1-4-sinf o'quvchilarining aqliy, jismoniy va estetik xususiyatlariga asosan murakkablashtirib borish;

- o'quv materiallarining keyingi sinf bosqichida davom etishini hisobga olish;

- har bir sinf oxirida o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini avvalgi sinf yakunidagi ko'rsatkichlarga qiyoslab baholash.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinflarda Matematika faning integratsion tarzda o'qitish imkonini beradi.

B) Jismoniy tarbiya fanini integratsion o'qitish. Bu o'quv fanining aniq fanlar turkumiga kiritilishiga sabab - uning vositasida o'quvchilar jismoniy-amaliy rivojlanirladi. Shu jihatdan jismoniy tarbiya fanini boshlang'ich sinflarda integratsion o'qitish uchun quyidagilarga amal qilish kutilgan samarani beradi:

- mashg'ulotlarning sinflar kesimida va o'quvchilarning jismoniy imkoniyatlariga mos tarzda o'tkazilishiga amal qilish;

- mashg'ulotlarning sinflar bosqichlariga asosan murakkablashib borishi;

- mashg'ulotlarni belgilashda milliy va xalqaro bolalar sporti asoslariga tayanish;

- har bir mashg'ulot bo'yicha o'quvchilarga qisqa va tushunarli nazariy tushunchalar berish.

Mazkur yondashuv boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya o'quv fanini integratsion tarzda o'qitish imkoniyatini beradi. E'tibor berilsa, bunday yondashuv negizida integratsion o'qitishning imkoniyatlari mujassam bo'lgan. Shu ma'noda misol tariqasida boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini klaster usulida tashkil etish masalasiga e'tibor bering.

Boshlang'ich ta'limda mashg'ulotlarni zamonaviy va ehtiyojlar darajasida tashkil etish vazifasi dolzarb hisoblanadi. Bu borada jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini an'anaviy usullardan tashqari zamonaviy, texnologik va noan'anaviy asoslarga tayangan shakllarda tashkil qilish muhim hisoblanadi. Chunki boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari asosan an'anaviy usulda tashkil qilinib, unda bolalarning jismoniy xatti - harakatini to'g'ri shakllantirishga asosiy e'tibor qaratib kelinmoqda.

Aslida boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari quyidagilarga yo'naltirilishi kerak:

- bolalarning jismoniy xususiyatlarini to'g'ri va tibbiy jihatdan talabga javob beradigan tarzda shakllantirish;

- bolalarning harakat organlarini yosh va ruhiy xususiyatlariga mos ravishda rivojlantirish;

- bolalarni jismoniy chiniqtirish;

- o'quvchilarni bolalar sportining turlari bilan dastlabki bosqichda tanishtirish.

Bularning barchasi boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini yangicha asoslarda tashkil etishni taqozo etadi. Buning uchun noan'anaviy mashg'ulotlar usullariga tayanish kutilgan samarani beradi. Ana shunday usullardan biri pedagogik ta'lim klasteridir.

O'qitishning klaster usuli mavjud shart-sharoitlar, omillar va imkoniyatlar majmuiga qarab tashkil etiladi. Shu jihatdan boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishning klaster usuli mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, bu mexanizmlarning asosiy jihatlari quyidagilar tashkil etadi:

1. Imkoniyatlarni hisobga olish. Bunda boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini klaster usulida tashkil etish uchun quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- maktabning jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini talab darajasida o'tkazish imkoniyatlariga egaligi;

- maktabning jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini olib boruvchi o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi;

- jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida nazariya va amaliy tushunchalarni uyg'un berish sharoitlarining mavjudligi.

Aynan mana shu imkoniyatlarining mavjudligi klaster usuli vositasida mashg'ulotlarni tashkil etish uchun asos bo'ladi.

2. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini zamonaviy darajada tashkil etish.

Buning uchun quyidagilarga amalga qilish kerak bo'ladi:

- jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini boshlang'ich sinflar o'quvchilarining jismoniy va ruhiy xususiyatlaridan kelib chiqib, ularning rivojlantirishga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish;

- jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini bolalar sportining barcha turlarini qamrab olgan holda o'tkazish;

- jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida o'quvchilarning bolalar sportining biror turi bo'yicha layoqatini shakllantirish;

- jismoniy tarbiya mashg'ulotlari natijasida o'quvchilarni bolalar sporti turlariga yo'naltirishga erishish.

Bunday yondashuv jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini klaster usulida tashkil etish vositalarini kuchaytiradi.

3. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini hamkorlikda tashkil etish.

Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini klaster usulida tashkil etish uchun yuqorida ta'kidlangan ikki omil mavjud bo'lsa, shundan keyin mashg'ulotlarni hamkorlikda tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Buning uchun quyidagilarga amal qilish kutilgan samarani beradi:

- mutaxassislar yordamida o'quvchilarga bolalar sporti turlari va ularning ahamiyati to'g'risida aniq tushunchalar berish;

- o'quvchilarni mutaxassislar yordamida bolalar sporti turlari bo'yicha muntazam mashq qildirib borish;

- iqtidorli o'quvchilarni mutaxassislar yordamida bolalar sporti turlariga jalb qilish;

- jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining nisbatan ko'p foizini bolalar sporti bilan tanishishga yo'naltirish;

- mazkur klaster usulida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil qilishda mutaxassislardan tashqari maktab psixologi va maktab tibbiyot hamshirasi yordamidan foydalanish;

- boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini klaster usulida tashkil etish jarayonidan ota-onalarni xabardor qilish;

- maktab jamoasining maslahati, tavsiyasi va ko'rsatmalariga tayanish;

- klaster usuli asosidagi mashg'ulotlar natijasida o'quvchilarda jismoniy sog'lomlik va sportga bo'lgan qiziqishning yuzaga kelganligini baholab borish.

E'tibor berilsa, klaster usulida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish nafaqat sport turlari bilan tanishtirish, balki uning vositasida o'quvchilarni jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlantirish va ularda jismoniy sog'lomlik ko'nikmalarini shakllantirishga erishish imkoniyatlari mavjud.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, klaster usulida mashg'ulotlarni tashkil etish ba'zi sharoitlar va imkoniyatlarni

tingozo etsa-da, lekin uning amaliy samaradorligi muhim hisoblanadi. Ayni paytda, hozirgi umumta'lim maktablarimizning jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini o'tkazish imkoniyatlari mavjud bo'lib, maktab sport zallari zamonaviy darajada jilhozlangan.

Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini klaster usulida tashkil etish uchun o'qituvchi asosiy vazifani bajaradi. Buning uchun o'qituvchi klaster usulidagi mashg'ulotlarning asoslari, uni tashkil etish omillari va samaraga erishish yo'llaridan xabardor bo'lishi kerak.

Shuningdek, oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak jismoniy tarbiya va sport o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning noan'anaviy klaster usuli kabi shakllardan ham saboq berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, o'qitishning klaster usulida ta'lim beruvchilarning keng ko'lamda ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan bizningcha, boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini klaster usulida o'tkazishning metodlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Aniq fanlarni integratsion o'qitishning nazariy masalalarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining *bilimini* shakllantirish muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi Qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari"da belgilangan17ki, "bilim - o'rganilgan" ta'limotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish"dir. Shu jihatdan boshlang'ich sinflarda aniq fanlarni o'qitishda o'quvchilarning bilim olishga qiziqishini va xohishini shakllantirish muhim hisoblanadi. Bu bilan o'quvchilarning matematik bilimlarini shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Misol uchun 4-sinf uchun mo'ljallangan Matematika darsligida o'quvchilarga mazkur fan bo'yicha bilimlarning negizi bo'lgan ko'p xonali sonlar, qo'shish va

ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallari bo'yicha bilimlar berish nazarda tutilgan. Bunda beriladigan bilimlar 1-3-sinflarda o'tilgan bilimlarning davomi bo'lishi va ushbu fan bo'yicha boshlang'ich ta'limni yakunlashi nazarda tutilishi kerak. Chunki 4-sinf o'quvchilari boshlang'ich ta'lim bitiruvchilari hisoblanadi. Bunday yondashuv aniq fanlarni boshlang'ich sinflarda integratsion o'qitishning asosi hisoblanadi.

2. Tabiiy fanlarni o'qitish integratsiyasi. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar turkumining asosi bo'lgan Atrofimizdagi olam va Tabiatshunoslik fanlari o'qitiladi. Kelgusida amalga kiritiladigan Milliy ta'lim dasturida bu o'quv predmetlarini bevosita "Tabiiy fanlar" deb yuritish belgilangan. Shu jihatdan mazkur ikki fanni integratsion o'qitishda quyidagilarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

- o'quvchilarga tabiat hodisalari, o'simliklar va hayvonot dunyosi to'g'risida sinflar kesimida chuqurlashtirilgan bilim berish;
- mavzularning sinflar kesimida chuqurlashtirish va kengayib borishiga erishish;
- har yili darsliklarni yangi nazariy ma'lumotlar bilan boyitib borish;

-o'quvchilarning o'zlashtirgan tabiiy-ilmiy tushunchalari ko'rsatkichlarini nazorat qilib borish.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy-ilmiy bilim olishlari va ular bo'yicha *ko'nikmaga* ega bo'lishlari imkoniyatlarini beradi. Amaldagi "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti"da belgilanganiki, "ko'nikma-o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarida qo'llay olish"dir. Bunda "tanish vaziyatlar" deganda o'quvchilarning maktab va oila muhiti nazarda tutiladi. Shu jihatdan Atrofimizdagi olam va Tabiatshunoslik o'quv fanlarini integratsion o'qitish natijasida ikki samaraga erishiladi: 1) o'quvchilarning tabiiy - ilmiy bilimlarini shakllantirish; 2)

o'quvchilarning o'zlashtirgan tabiiy-ilmiy bilimlarini tanish vaziyatlarida qo'llay olish ko'nikmasini rivojlantirish. Misol uchun, 1-sinflar uchun mo'ljallangan Atrofimizdagi olam darsligida o'quvchilarga quyidagilar bo'yicha dastabki tushuncha va bilimlarni berish nazarda tutilgan:

- maktab sinf mahalla muhiti haqida tushunchalar berish;
- maktabda va ko'chada yurish qoidalari bilan tanishtirish;
- quyosh, oy, yulduzlar va fasllar haqida tushuncha berish;
- dalalar, qushlar, o'simliklar va hasharotlar to'g'risida tushuncha berish;

- umuman o'quvchilarni dastabki bosqichda tabiat bilan tanishtirish.

E'tibor berilsa, 1-sinfda o'quvchilar voqeyilik va tabiat to'g'risida to'liq tushunchaga ega bo'lishadi. Shu sababli mazkur o'quv fani Tabiatshunoslik fani bilan o'zaro bir-birini to'ldiruvchi, bog'liqlikda va uyg'unlikda o'qitilishi kutilgan samarani beradi. Unda Atrofimizdagi olam o'quv fanining materiallarini keyingi sinflarda Tabiatshunoslik fanining materiallari to'ldirishiga e'tibor berish kerak. Bularning barchasi boshlang'ich sinflarda Tabiiy fanlarni integratsion o'qitish asoslarini tashkil etadi.

3. Gumanitar fanlarni o'qitish integratsiyasi. Boshlang'ich ta'limda Gumanitar fanlar turkumiga kiruvchi ona tili va o'qish, O'zbek (rus, ingliz) tili, Tarbiya, Musiqqa madaniyati, Tasviriy san'at va Texnologiya (mehnat va dizayn) o'quv fanlari o'qitilmoqda. Shu jihatdan mazkur gumanitar turkumdagi fanlarni integratsion o'qitishda quyidagi *umumiy talablarga* rioya qilish taqazo etiladi:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy ongini shakllantirish;
- o'quvchilarning mustaqil fikrlash va tafakkurini shakllantirish;

- o'quvchilarning ijodiy layoqatlarini samarali rivojlantirish;

-o'quvchilarning gumanitar bilimlarini sinflar kesimida rivojlantirish.

Ayni paytda, mazkur fanlar bo'yicha integratsion o'qitishning quyidagi individual talablariga amal qilish ham zaruriyat hisoblanadi:

- fanlar aloqadorligida va sinflar kesimida chuqurlashtirilgan bilim berish;

- o'quv fanlarining nazariy, estetik va metodik jihatdan uyg'un bo'lishiga erishish;

- o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini sinflar kesimida chuqurlashtirib borish;

- o'quvchilarning iqtidori darajasini aniqlash va rivojlantirish.

Mana shu umumiy va individual talablarga amal qilish boshlang'ich sinflarda gumanitar fanlarni integratsion o'qitishning negizini tashkil etadi.

Boshlang'ich sinflarda gumanitar fanlarni integratsion o'qitish bilan o'quvchilarning *malaka va kompetensiyalarini* kuttigan darajada shakllantirish imkoniyatlariga ega bo'linadi. "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standart"da ta'kidlanadiki, "malaka - o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish hamda yangi bilimlarni hosil qilish" dir, "kompetensiya - mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati" dir. Bu o'rinda "notanish vaziyat" deganda maktab va oila muhitidan tashqari o'quvchilar bo'ladigan muhitlar (muzeylar, tabiat, qishloqlar, shaharlar, oromgohlar va h.k.) tushuniladi. E'tibor berilsa, boshlang'ich sinflarda aynan gumanitar fanlarni integratsion chuqurlashtirilgan tarzda o'qitish bilan o'quvchilarning malaka va kompetensiyalarini sinflar kesimida rivojlantirib borish mumkin. Misol uchun, 2-sinf Ona tili darslarida o'quvchilarni Tasviriy san'at darsligida berilgan rasmlar va suratlar to'g'risida hikoya tuzdirish, bayon yozdirish imkoniyatlari mavjud. Bu bilan o'quvchilarning Ona tili

grammatikasi bo'yicha savodxonligi kengayadi va Tasviriy san'at darsligida berilgan o'quv materiallarini o'zlashtirishi chuqurlashadi. Ayni paytda, bu bilan o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga erishiladi. Shu sababli bunday yondashuv boshlang'ich sinflarda gumanitar turkumdagi o'quv fanlarini integratsion o'qitishning negizi hisoblanadi.

Misol tariqasida boshlang'ich sinflarda Texnologiya o'quv fanini o'qitishning kompyuterli vositasiga e'tibor bering.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida boshlang'ich sinflarda fanlarni o'qitishni optimallashtirib borish vazifasi qo'yilgan. Bunda, pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib boorish vazifasi turadi. Shu jihatdan boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan texnologiya fanini o'qitilishini takomillashtirib borish taqozo etiladi. Bu masalada quyidagilar muhimdir:

- boshlang'ich sinflarda texnologiya fanining mazmunini yangilab borish;

- boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitishning mexanizmlarini takomillashtirib borish;

- boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitishda nazariya va amaliyot uyg'unligiga erishish;

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish.

Bularning barchasi boshlang'ich sinflarda mehnat ta'limini o'qitish texnologiyalarini yangilab borish bilan bog'liqdir. Chunki COVID-19 kabi hodisalar har qanday sharoitda amaliyotda qo'l keluvchi o'qitish texnologiyalari kerakligini ko'rsatdi. Negaki aynan texnologiya kabi fanlarni o'qitishda qulay, zamonaviy va masofaviy talablarga javob beradigan texnologiyalar majmui zarurligini namoyon etdi. Shu jihatdan kompyuterli texnologiya boshlang'ich

sinflarda texnologiya fanini masofali o'qitishning maqbul vositalaridan biri hisoblandi.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitishning kompyuterli texnologiyasi maxsus dastur asosida ishlab chiqiladi. Buning uchun quyidagi talablar qo'yiladi:

a) kompyuter texnika vositalarining o'quvchi va o'qituvchi tomonidan qo'llanish imkoniyatining mumkinligi;

b) kompyuter texnika vositasining Internet tarmog'i dasturiga ulanganligi va undan masofadan turib foydalanish mumkinligi;

v) kompyuter texnologiyasiga joylashtiriladigan o'quv materiallarining didaktik talablar va boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi jismoniy, aqliy hamda ma'naviy xususiyatlariga mos bo'lishi;

g) texnologiya fanidan masofali ta'limga joylashtirilgan o'quv materiallarining tushunarliligi, aniq va ularni boyitib borish xususiyatlariga ega bo'lishi.

Biz mazkur talablardan kelib chiqib kompyuterli texnologiyani shakllantirdik (2.1.1-rasm).



Mazkur kompyuterli texnologiya o'qituvchi tomonidan "Texnologiya" fani o'quv dasturi va darsligi asosida o'quv materiallarining ketma-ketligi hamda undan foydalanishning izchilligi tarzida shakllantirildi. Bunda ma'lumotlar banki dasturining algoritmi quyidagilardan iborat ("M"-ma'lumot):

M₁ - ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlar (O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Yangi Qonun), mehnat ta'limiga oid davlat standartlari, o'quv dasturlari);

M₂ - "Texnologiya" darsliklarining (1-4 sinflar uchun) elektron varianti va yordamchi adabiyotlar ro'yxati;

M₃ - "Texnologiya" fanining mavzulari bo'yicha matnlar, savollar, topshiriqlar va tavsiflar;

M₄ - mavzular bo'yicha keys topshiriqlari, mustaqil ta'lim mavzulari va mavzular bo'yicha testlar;



2.1.1-rasm. Boshlang'ich sinflarda Texnologiya fani integratsion o'qitishning kompyuterli texnologiyasi.

M₅ - mavzular bo'yicha ishlanmalar maketlari, mahsulotlar yasash materiallari, tavsiflari va ko'rsatmalari

M₆ - turli narsalar yasash uchun topshiriqlar majmuri;

M₇ - o'quvchilar tomonidan yasalgan buyumlar namunalari va ularning tavsifi;

M₈ - mehnatsevarlik va uning ahamiyati to'g'risida mutafakkirlar fikrlari, maqollar, hikmatlar va qo'shimcha o'qish uchun tavsif etiladigan adabiyotlar annotatsiyasi;

Me - boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun texnologiya fani qoidalari va talablarining o'zlashtirilganligi, baholash mezonlari.

E'tibor berilsa, bu kompyuterli texnologiya o'qituvchi tomonidan maxsus ishlab chiqiladi va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining auditoriyada yoki masofadan turib foydalanishiga mo'ljallanadi. Undan foydalanishning quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- kompyuter yoki mobil aloqa vositasidan foydalanish;
- ma'lumotlar banki dasturidagi axborotlarni yangilab yoki takomillashtirib borish;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining istagan vaqtda foydalanishi;
- o'zlashtirilganlarini amaliyotda sinab ko'rish va turli mahsulotlar yasashi;


-o'qituvchining talabalar o'zlashtirishini nazorat qilib borishi. Mazkur kompyuterli texnologiya o'qituvchi va talabalar hamkorligida ishlab chiqilishi yanada maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda mehnat ta'limining ommaviy kompyuterli texnologiyasini shakllantirish va uni amaliyotga tadbiq etish muhim vazifalardan biri bo'lib turibdi.

Zero, diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini *turkumlashtirib* o'qitish integratsiyasining nazariy masalalari fanlarni chuqurlashtirib o'qitish, o'quvchilarning kutilgan darajada o'zlashtirishiga erishish va ularning kompetensiyalarini rivojlantirib borish imkoniyatlarini beradi. Bunday yondashuv hozirgi boshlang'ich ta'limning sifat samaradorligiga erishishdagi omillardan biridir.

E'tibor bering:

Boshlang'ich sinflarda o'quv fanlarini integratsion o'qitish



2.1-2-rusm. Boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini turkumlashtirib o'qitish integratsiyasining nazariy omillari

2.2. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini xalqaro dasturlardan foydalanib o'qitish integratsion shakli

Boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini klaster yondashuv asosida xalqaro dasturlardan foydalanib o'qitish integratsiyasining nazariy masalalarida boshlang'ich sinf o'qituvchisining mamlakatimizning yangi mafkurasidan keilib chiqib ish tutishi taqozo etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2021 yil 19 fevral kuni bo'lib o'tgan videoelektr majlisida O'zbekistonning yangi mafkurasi g'oyalari e'lon qildi. "Biz-dedi Davlatimiz rahbari, yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi insonparvarlik, ezgulik, va bunyodkorlik g'oyasi bo'ladi". Bu o'rinda ana shu g'oyalarning pedagogik talqiniga e'tiboringizni tortamiz.

Mafkuraviy tarbiya deganda eng avvalo yoshlarni g'oyaviy tarbiyalash, ularning ongi va qalbiga eng yorug' g'oyalarni singdirish nazarda tutiladi. Shu sababli yangidan taqdim etilayotgan mafkuraning g'oyalari mazmunini anglab olish ehtiyoji mavjud.

1. *Insonparvarlik*. Mazkur g'oya ham asrlar davomida xalqimizning turmush tarzi va ijtimoiy hayotida tajribalardan o'tgan bo'lib, uning mazmunini o'zgalarga yaxshilik qilish va ijtimoiy hayotda hayotsevar bo'lish tashkil qiladi. Bu g'oya o'rta asrlarda yashab o'tgan mutafakkirlarimiz tomonidan inson umrining mazmunini sifatida talqin qilingan. Misol uchun, barchaga ma'lum bo'lgan Alisher Navoiyning "Hamsa" asaridan olingan quyidagi baytini eslang:

Odami ersang demagil odami,

Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.

E'tibor bering, Alisher Navoiy odamiylikni eng avvalo xalqparvarlik sifatida talqin qiladi.

2. *Ezgulik*. Bu g'oya xalqimiz hayotida tarixiy tajribadan o'tgan bo'lib, uning mazmunini yaxshi fazilatarni o'zlashtirish va yomonlik illatlaridan himoya qilish tashkil etadi. Eng qadimiy manbaamiz "Avesto" da Ezgulik g'oyasining asosi sifatida ezgu niyat, ezgu fikr va ezgu amal tashkil qilishi tahlil qilingan. Shu sababli yangi mafkuramizning Ezgulik g'oyasi ana shu tamoyillarga asoslanadi.

3. *Bunyodkorlik*. Bu g'oya lotincha bo'lib, tarraqqiyotning mazmunini ifodalaydi. Unga ko'ra, har bir shaxs insonni qadrlashi va umuminsoniy qoidalarga itoat etishi kerak. Bu g'oya G'arb faylasuf-pedagogi Jan Jak Russoning "Emel yoki tarbiya to'g'risida" asarida yaxshi tahlil qilingan bo'lib, unda har bir shaxsning fikru ongida insonparvarlik muhim o'rin tutishi va bu g'oyani singdirishning usullari tahlil qilib berilgan.

Mazkur uch muhim g'oya asosida ta'lim tizimida yangi mafkuraviy tarbiya amalga oshirilishi nazarda tutilmoqda. Bunday tarbiyaning turlari to'g'risida Davlatimiz rahbari quyidagi fikrlarni bildirdi: "*Biz mafkura deganda avvalo fikr tarbiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz*". Shu jihatdan

yangi mafkuraviy tarbiya vositasida quyidagi tarbiya turlari amalga oshiriladi:

1. *Fikr tarbiyasi*. Bu tarbiyada ta'lim tizimi vositasida yoshlarda mustaqil fikrlash, erkin tafakkurga ega bo'lish va mulohaza yuritish ko'nikmalari shakllantiriladi. Fikr tarbiyasi to'g'risida Abu Ali ibn Sinooning "Donishnoma", Abdurrauf Fitratning "Najot yo'li" va Abdulla Avloniyning "Axloq" asarlarida o'ziga xos tahlillar va uslubiy tavsiyalar taqdim etilgan.

2. *Milliy qadriyatlar tarbiyasi*. Mazkur tarbiya vositasida yoshlarda xalqimizga xos bo'lgan milliy o'zlik, o'ziga xoslik va ideal maqsad muddaolarga intilish ko'nikmasi shakllantiriladi. Milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash masalalari G'arb mutafakkiri E. Shopingaurning "Ehtiyoj" asarida o'ziga xos talqinlar amalga oshirilgan.

3. *Umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasi*. Tarbiyaning ushbu turi vositasida yoshlarda umuminsoniy g'oyalari, odatlar va qoidalar bo'yicha ko'nikmalar shakllantiriladi. Umuminsoniy qadriyat asosida tarbiyalash masalalari Aristotelning "Etika", ingliz pedagogika Jon Diyuuzning "Metafizika" asarlarida muhim nazariy mulohazalar yuritilgan va umuminsoniy qadriyatlarining tarkiblari ko'rsatib o'tilgan.

E'tibor berilsa, O'zbekistonda amalga oshiriladigan yangi mafkuraviy tarbiyaning ana shu uch muhim turiga asoslanadi.

O'zbekistonda taqdim etilayotgan yangi mafkura va uning tarbiyaviy asoslariga sabab sifatida ekspertlarning "jamiyatta faqat o'zini o'ylash, oilaga engil qarash va iste'molchilik kuyfiyatlarining yashovchan bo'lib qolayotganligi" to'g'risidagi xulosa sabab bo'lmog'da. Shu jihatdan oliy pedagogik ta'lim tizimida yangi mafkuraviy tarbiyani tashkil etish dolzarb bo'lib turibdi. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- yangi mafkuraning ezgulik, odamiylik va gumanizm g'oyalari pedagogik taxli qilish, ularni bo'lajak o'qituvchilar ongiga singdirish metodologiyasini ishlab chiqish;

- yangi mafkuraviy tarbiyaning fikr tarbiyasi, milliy qadriyatlar tarbiyasi va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasi asoslarini ishlab chiqish, ularni bo'lajak o'qituvchilar qalbiga singdirish metodlarini yaratish;

- yangi mafkuraning g'oyalari va tarbiya turlari bo'yicha pedagogik tadqiqotlar olib borish hamda ularni amaliyotda qo'llash mexanizmlarini shakllantirish.

Hozirgi zamon oliy pedagogik ta'lim tizimida mazkur yangi mafkuraviy tarbiya jarayonini amalga oshirish imkoniyatlari mavjud. Bunday imkoniyatlarning asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- nazariy mashg'ulotlarda yangi mafkuramizning g'oyalari sharhlab berish va tushuntirish;

- amaliy mashg'ulotlar jarayonida mafkuraviy tarbiyaning fikr tarbiyasi, milliy qadriyatlar tarbiyasi va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasi asoslarini talabalarga tushuntirish, ular bo'yicha treninglar o'tkazish;

- talabalarining yangi mafkura g'oyalari va tarbiya asoslari bo'yicha bilimlarini hamda ko'nikmalarini aniqlab borish;

- bu borada tashabbuskor talabalarining ishlamalarini rag'batlantirish.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida yangi mafkuraning asoslari bo'yicha

pedagogik targ'ibot olib borish ham taqozo etiladi. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

- ezgulik, odamiylik va gumanizm g'oyalari to'g'risidagi pedagogik manbalarni o'qishga tavsiya qilish;

- fikr tarbiyasi, milliy qadriyatlar tarbiyasi va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasi to'g'risidagi adabiyotlar bilan tanishishga davlat qilish;

- yangi mafkuraning asoslari bo'yicha tanlovlar, bilimdonlik olimlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish;

- yangi mafkura asoslarini targ'ibot qiluvchi yoshlar tashabbuskor guruhlari tashkil etish.

Mafkuraviy tarbiya g'oyaviy tarbiyaning asosi sifatida pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Chunki uning vositasida bo'lajak o'qituvchilarning ongida sog'lom g'oyaviylik, axloqida eng ezgu fazilatlarini o'zlashtirish va kelgusi faoliyatida ularga amal qilish qobiliyatini shakllantirish ishlari amalga oshiriladi. Shu sababli har bir demokratik jamiyatda mafkuraviy tarbiyaga ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy tarbiyaning turidan biri sifatida qaraladi.

Ayni paytda, yangi mafkuramiz g'oyalari va tarbiyaviy asoslari yoshlar ongiga zo'rab yoki majburiy tarzda singdirilmasiligi kerak. Bu jarayon pedagogik qonuniyatlar, tamoyillar va metodlarga asosan amalga oshiriladi. Shu jihatdan, bu ishlarni oliy pedagogik ta'lim jarayonida tizimli yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bunday yondashuv o'qituvchining o'quv fanini o'qitishda xalqaro dasturlardan milliy ruh asosida foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini xalqaro dasturlardan foydalanib o'qitish integratsiyasida o'ziga xos metodikadan foydalanish muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim va uning samaradorligi muhim o'rin tutadi. Bunda ayniqsa, boshlang'ich ta'limning mamlakatimizda tugagan o'rnini va ahamiyatini o'rtib bormoqda. Boshlang'ich ta'lim tizimini umumiy o'rta ta'limning mosiy bo'g'ini bo'lib, uning vazifalari quyidagilardan iborat:

-aniq, gumanitar va tabiiy fanlarning dastlabki bosqichi bilan o'quvchilarni tanishtirish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, savodxonlik va tarbiyaviylik ko'nikmalarini shakllantirish;

-boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'limning umumiy o'rta, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan ta'lim bosqichlariga tayyorlash;

-boshlang'ich ta'limga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikasion texnologiyalarni joriy etish.

E'tibor berilsa, O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim o'ziga xos tizim va vazifalar ega. Bunda ayniqsa, o'quvchilarni keyingi ta'lim bosqichlariga tayyorlash muhim o'rin tutadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'yicha nazariy bilim va kasbiy ko'nikma berish dolzarb bo'lib turibdi. Boshlang'ich ta'lim metodikasi boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan o'quv fanlarining asoslari bilan tanishtiradi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim metodikasi asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

-boshlang'ich ta'lim metodologiyasi;

-boshlang'ich ta'lim didaktikasi;

-boshlang'ich ta'limda tarbiya nazariyasi.

Boshlang'ich ta'lim metodologiyasini pedagogika tarixidagi boshlang'ich ta'lim bosqichi, ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, pedagogika meros va pedagogik ilmiy-tadqiqotlar tashkil etadi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mazkur metodologik asoslarni chuqur o'zlashtirishi taqozo etiladi.

Boshlang'ich ta'lim didaktikasi o'qitishning metodlari, shakllari va texnologiyalaridan iborat. Bugungi kunda O'zbekiston boshlang'ich ta'limida o'qitishning ana'anaviy dars shakli,

masofaviy va elektron-modulli texnologiyalari keng joriy etilmoqda. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliy pedagogik ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'lim didaktikasi asoslarini nazariy va amaliy jihatdan o'zlashtirishi lozim. Bu ish pedagogik turkumdagi majburiy va tanlov fanlari vositasida amalga oshiriladi.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya nazariyasi 7-11 yoshli o'quvchilarning ijtimoiy ongini shakllantirish, axloqini tarkib topdirish va ularni ijtimoiylashtirishni nazarda tutadi. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarni dastlabki bosqichda aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga qaratiladi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliy pedagogik ta'lim jarayonida "Tarbiya", "Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi" kabi mutaxassislik fanlarini chuqur o'zlashtirishi taqozo etiladi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'lim metodikasi boshlang'ich sinflarda amalga oshiriladigan ta'lim va tarbiyaning negizini tashkil etadi. Shu sababli mazkur yo'nalish bo'yicha yangi ilmiy ishlanmalar yaratish zaruriyat bo'lib turibdi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda tadqiqot ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

-boshlang'ich ta'lim tarixining asosiy bosqichlari;

-O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tarixi;

-boshlang'ich ta'limga doir halqaro ta'lim dasturlari;

-boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiyaning nazariy masalalari;

-boshlang'ich ta'limda joriy etiladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar;

-boshlang'ich ta'limda klaster muammolari;

-boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik samaradorligi.

Mazkur yo'nalishlarda pedagogik ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim metodikasiga doir amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlarni va ularda ishlab chiqilgan metodikani ta'lim va tarbiya jarayoniga joriy etib borish dolzarb ekanligini ta'kidlash lozim. Bu borada oliy pedagogik ta'lim jarayonida mutaxassislik fanlarini o'qitish imkoniyatlaridan chuqur foydalanish tavsiya etiladi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'lim metodikasi asoslarini chuqur o'rganish, o'rgatish va uning nazariy masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borish dolzarb bo'lib turibdi. Bu borada boshlangan ishlarni amaliyotga yo'naltirish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, iqtidorli talabalarni boshlang'ich ta'lim metodikasi muammolari bo'yicha izlanishlarga jalb qilish samarali hisoblanadi.

E'tibor berilsa, milliy ruh va o'ziga xos metodikaga asoslanib boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini xalqaro dasturlardan foydalanib integratsion o'qitish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 14 apreldagi "Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida o'quv jarayoni va ilmiy tadqiqotlarda TIMSS va STEAM kabi xalqaro ta'lim dasturlaridan izchil foydalanish vazifasi qo'yilgan. Shu ma'noda boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini *xalqaro dasturlardan foydalanib o'qitish integratsiyasining nazariy masalalarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.*

*Boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini TIMSS xalqaro ta'lim dasturidan foydalanib o'qitish.*¹⁸ Mazkur xalqaro ta'lim dasturi 1995 yilda amalga kiritilgan bo'lib, 4 va 8-sinf o'quvchilarining tabiiy va matematik fanlar bo'yicha bilimlarini monitoring qiladi. Uning to'liq nomi quyidagicha:

TIMSS xalqaro ta'lim dasturi bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish uchun quyidagi tayyorgarlik bosqichlarini amalga oshirish kerak bo'ladi:

- 1) umumiy o'rta ta'lim maktablarini tanlash;
- 2) o'quv fanlarini o'zlashtirish darajasi boshlang'ich sinf o'quvchilari, maktab jamoasi vakili, maktab psixologi va taklif etilgan mutaxassisidan iborat Guruh tuzishi;
- 3) tuzilgan Guruh uchun kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida mazkur xalqaro ta'lim dasturlari asoslari bo'yicha malaka berish;
- 4) tashxis etish uchun ushbu xalqaro baholash dasturlari asosida maxsus test tuzish;
- 5) o'rganish ishlarini amalga oshirish uchun texnik va texnologik tayyorgarliklarni ko'rish;
- 6) o'quvchilarni testga tayyorlash.

Bunday tayyorgarlik bosqichi mazkur xalqaro ta'lim dasturlari asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish ishini amalga oshirish keng imkoniyatlarni beradi.

Guruh tanlangan o'quvchilar o'rtasida maxsus tuzilgan test asosida quyidagicha o'rganish ishini amalga oshiradi:

- 1) maxsus jhozlangan sinfda testni o'tkazish;
- 2) test jarayoni uchun etarli vaqt berish;
- 3) test jarayonida o'quvchilarning ishlashini kuzatish;
- 4) o'quvchilarning erkin ishlashi uchun imkoniyat berish;
- 5) test jarayonida o'quvchilarning savollariga javob berish;
- 6) test jarayonida o'quvchilarni rag'batlantirib turish.

O'rganish ishini bunday amalga oshirish kutilgan samarani beradi va test davomida keng ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'linadi.

O'tkazilgan test natijalari quyidagicha tahlil etiladi:

- 1) test savollariga berilgan to'g'ri javoblarni aniqlash va ularni foizda ko'rsatish;

2) javoblar asosida o'quvchilarning matematik savodxonligi va tabiiy fanlar bo'yicha bilimdonlik darajasini aniqlash;

3) to'g'ri javoblar asosida o'quvchilarning fikrlash, ijodiy yondashish va bilim darajasini baholash;

4) javoblar natijasiga ko'ra har bir ishtirokchi o'quvchining bilim, ko'nikma va malakasini baholash;

5) noto'g'ri javoblar natijasiga ko'ra o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

6) testda muvaffaqiyatli ishtirok etgan o'quvchilarni rag'batlantirish.

O'rganish ishini bunday amalga oshirish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarining darajasi bo'yicha muhim ma'lumotlarni beradi.

Guruh test ma'lumotlari asosida quyidagi ishlarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

1) o'rganish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'qituvchi va o'quvchilarga taqdim etish;

2) ma'lumotlarni maktab Pedagogik kengashida muhokama qilish;

3) o'rganish natijalari asosida ishlab chiqilgan Tavsiyalarni amalga oshirish chora-tadbirlarini Pedagogik kengashda belgilash;


4) o'rganish natijalari bo'yicha Ma'lumotnomani O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga taqdim etish;

5) bunday o'rganish ishining navbatdgisini amalga oshirish Rejasini ishlab chiqish;

6) mazkur xalqaro ta'lim dasturlari asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish bo'yicha o'rganish ishini muntazam o'tkazib borishni belgilash.

Bunday o'rganish tahlilini amalga oshirish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirib borish yo'nalishlarini aniq belgilab olish imkonini beradi.

E'tibor berilsa, mazkur metodikaga asosan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini o'rganish qulay hisoblanadi. Shu jihatdan ushbu metodikaning tuzilmasiga etibor bering:



2.2.1-rasm. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini TIMSS xalqaro baholash dasturi asosida tashxis etish metodikasi

Mazkur xalqaro baholash dasturi asosida o'quvchilarning masofaviy shakl asosida bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishning imkoniyati ham mavjud. Buning uchun kompyuter vositasida tashxis etish testi o'quvchilarga taqdim etiladi va tashxis etish ishi masofadan turib onlayn tarzda amalga oshiriladi. Tashxis etishga doir barcha ishlar va uning natijalari onlayn tarzda amalga oshiriladi.

Zero, TIMSS xalqaro baholash dasturi asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma hamda malakalarini tashxis etish metodikasi o'ziga xos xususiyatlarga ega bilan diqqatni tortadi. Biz mazkur metodikani shakllantirishda quyidagi tamoyillarga asoslandik:

- 1) TIMSS xalqaro baholash dasturi mazmuniga hisobga olish;
- 2) qulaylik;
- 3) osonlik;
- 4) oddiylik

Bu tamoyillar taqdim etilgan metodikaning shakllanishida asos bo'ldi. Shu sababli o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini xalqaro baholash dasturlari asosida tashxis etish masalasida biz eng qulay metodikaga tayanish tarafdorimiz.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda TIMSS xalqaro baholash dasturidan foydalanish kutilgan samarani beradi. Buning uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:


- 1) xalqaro baholash dasturi bo'yicha xorijiy mamlakatlarning tajribalarini o'rganib borish;
- 2) xalqaro baholash dasturi bo'yicha mutaxassislarining tavsiyalarini o'rganib borish;
- 3) xalqaro baholash dasturi bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining tajribalarini oshirib borish;
- 4) oliy ta'lim muassasalarida hamda kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida maxsus kurslar tashkil etish;
- 5) xalqaro baholash dasturi bo'yicha malakali o'qituvchilarning tajribalarini ommalashtirib borish.

Bularga amal qilish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini xalqaro dasturlar asosida tashxis etish metodikasini takomillashtirib borishga tayanch bo'ladi.

Shunday qilib o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini xalqaro baholash dasturi asosida tashxis etishning an'anaviy metodikasi o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Taqdim etilgan an'anaviy metodika tizimliliigi, osonligi va ommaviyligi bilan muhim ahamiyatga ega. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma hamda malakalarini tashxis etishda mazkur an'anaviy metodikadan foydalanish kutilgan samarani beradi, degan fikrdamiz. Chunki bunday an'anaviy metodlar ko'pchilikka ma'qul ekanligi bilan pedagogik jarayonda muhim o'rin tutadi.

Kompyuterli ta'lim metodi mazkur texnik vositaning dasturi asosida ishlab chiqiladi va virtual ta'lim jarayonini amalga oshirishda go'l keladi. Bu o'rinda e'tiboringizni STEAM xalqaro baholash dasturidan foydalangan holda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishning biz tomonimizdan shakllantirilgan *kompyuterli metodikasiga* tortamiz.

Mazkur metod kompyuterli dastur asosida shakllantiriladi. Ushbu kompyuterli metodikaning tuzilmasiga e'tibor bering:



2.2.2-rasm. *O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishning kompyuterli metodikasi*

Mazkur kompyuterli metodikadan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini STEAM xalqaro baholash dasturi asosida tashxis etish samarali hisoblanadi. Bu kompyuterli metodikaning mazmunini quyidagilardan iborat:

1) metodika tavsifi kompyuter dasturiga kiritilgan;

2) o'quvchilarning bilim darajasini STEAM xalqaro baholash dasturi asosida aniqlashning mezonlari *blokida* quyidagilar belgilangan:

a) o'quvchining o'quv fanlariga qiziqish darajasi; b) o'quvchining tabiiy fanlar, texnologiya fani, san'at fanlari va matematika fani mavzularini o'zlashtirish darajasi; v) o'quvchining mazkur fanlarni o'zlashtirishda duch keladigan muammolar; g) o'quvchining duch kelgan muammolarini hal etish bo'yicha tavsiyalar.

3) o'quvchilarning ko'nikma darajasini STEAM xalqaro baholash dasturi asosida aniqlashning mezonlari *blokida* quyidagilar taqdim etilgan:

a) o'quvchining tabiiy fanlar, texnologiya fani, san'at fanlari va matematika fani mavzularini tushunish darajasi; b) mazkur fanlar bo'yicha o'quvchining mustaqil fikrlash darajasi; v) ushbu fanlarni o'zlashtirishda o'quvchining mustaqil harakat qilish darajasi; g) o'quvchi bu fanlarni o'zlashtirishda duch kelayotgan muammolarni hal etish bo'yicha tavsiyalar.

4) o'quvchilarning malaka darajasini STEAM xalqaro baholash dasturi asosida aniqlashning mezonlari *blokida* quyidagilar belgilangan:

a) o'quvchining tabiiy fanlar, texnologiya fani, san'at fanlari va matematika fani bo'yicha o'zgalar bilan hamkorlik qila olish darajasi; b) bu fanlar bo'yicha o'quvchining mustaqil izlanish darajasi; v) o'quvchining mazkur fanlar bo'yicha o'qituvchilar bilan aloqadorlik darajasi; g) ushbu fanlar bo'yicha o'quvchining o'zlashtirgan ko'nikmasini amaliyotda qo'llay olish darajasi.

5) o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini STEAM xalqaro baholash dasturi asosida aniqlangan muammolar bo'yicha tavsiyalar *blokida* quyidagilar taqdim etilgan:

a) har bir past ko'rsatkichli o'quvchilar bilan ishlash; b) yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va

malaka darajasini yanada o'stirib borish; v) tabiiy fanlar, texnologiya fani, san'at fanlari va matematika fani bo'yicha o'quvchilarga qo'shimcha o'quv materiallari taqdim etib b'irish; g) ushbu fanlar bo'yicha tajribali o'qituvchilarning individual uslublarini o'rganib borish.

6) mazkur kompyuterli metodikaning o'quv fanlari o'qituvchilari *blokida* quyidagi tavsiyalar berilgan:

a) tashxis natijalari to'g'risidagi Ma'lumotnomani o'quvchilar bilan muhokama qilish; b) tashxis natijalari to'g'risidagi Ma'lumotnomada bilim, ko'nikma va malaka darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilarni rag'batlantirish; v) tashxis natijalari to'g'risidagi Ma'lumotnomada bilim, ko'nikma va malaka darajasi talab ko'rsatkichidan past o'quvchilar bilan ishlash Rejasini ishlab chiqish hamda amalga oshirish; g) tashxis natijalari to'g'risidagi Ma'lumotnomada taqdim etilgan Tavsiyalarning jirosini ta'minlash.

7) ushbu kompyuterli metodikaning Sinf rahbarlari *blokida* quyidagi tavsiyalar taqdim etilgan:

a) tashxis natijalari to'g'risidagi Ma'lumotnomani chuqur o'rganish; b) o'quv fanlari o'qituvchilarining bilim, ko'nikma va malaka darajasi bo'yicha past ko'rsatkichli o'quvchilar bilan ishlash faoliyatini muvofiqlashtirib borish; v) har chorakda mazkur ishlar bo'yicha tahlil o'tkazish; g) amalga oshirilayotgan ishlar jarayoni to'g'risida maktab Pedagogik kengashiga ma'lumot berib borish.

8) mazkur kompyuterli metodikaning maktab Pedagogik kengashi *blokida* quyidagi tavsiyalar berilgan:

a) tashxis etish bo'yicha olingin Ma'lumotnomani muhokama qilish; b) tashxis etish natijasida aniqlangan past ko'rsatkichli o'quvchilar bilan ishlash tadbirlarini ishlab chiqish va o'quv fanlari o'qituvchilari hamda Sinf rahbarlariga taqdim etish; v) past ko'rsatkichli o'quvchilar bilan ishlash jarayoni to'g'risida ma'lumotnomalar olib borish; g) navbatdagi tashxis etish muddatini belgilash.

9) tashxis etishni amalga oshiruvchi Guruh blokida ushbu kompyuterli metodikadan foydalanish mexanizmlari taqdim etilgan.

Ushbu kompyuterli metodikadan foydalanish mexanizmlari quyidagilardan iborat:

-bu metodika kompyuter dasturida joylashtirilga va undan masofaviy shaklda foydalanish mo'ljallangan;

-STEAM xalqaro baholash dasturi asosida test tuzish uchun quyidagi talablar mazkur kompyuterli metodikaning ishchi Guruh blokida kiritilgan:

1) o'quvchining faol munosabatga kirishish darajasi;

2) hamkorlik qila olish darajasi;

3) faollik darajasi.

-ishchi Guruh mazkur talablar asosida tashxis etish test savolnomasini ishlab chiqadi;

-ishchi Guruh test savolnomasini kompyuter vositasida virtual tarzda o'quvchilarga taqdim etadi va javoblar uchun vaqt muddatini belgilaydi;

-o'quvchilar taqdim etgan javoblarni ishchi Guruh qabul qilib, tahlil etadi va tashxis etish natijalari to'g'risida Ma'lumotnoma tayyorlaydi;

-ishchi Guruh tomonidan tayyorlanadigan Ma'lumotnomada yuqori va past ko'rsatkichli o'quvchilar aniqlanishi, ko'rsatkichlar foizlarda aks etishi hamda past ko'rsatkichli o'quvchilar bilan individual ishlash bo'yicha Tavsiyalar aks etishi kerak;

-ishchi Guruh tashxis etish natijalari bo'yicha tayyorlangan Ma'lumotnomani maktab Pedagogik kengashiga taqdim etadi.

Mazkur kompyuterli metodikadan foydalanishda tashxis etish ishchi Guruh STEAM xalqaro baholash dasturining quyidagi talablariga rioya etishi tavsiya etiladi:

1) tabiiy fanlar, texnologiya fani, san'at fanlari va matematika fanlarini integratsiya shaklida o'qitishga e'tibor berish;

2) mazkur o'quv fanlarini o'qitishda ko'proq o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishni maqsad qilib qo'yish;

3) ushbu o'quv fanlari bo'yicha o'quvchilarning mustaqil izlanishini tashkil etish;

4) bu o'quv fanlarini o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikasion texnologiyalarga asoslanish.

Bularning barchasi tashxis etish ishchi Guruhning mazkur kompyuterli metodikadan foydalanishda qulaylik yuzaga keltiradi. STEAM xalqaro ta'lim dasturi tabiiy va san'at fanlarini uyg'un o'qitishga asoslangan.

Shu sababli mazkur xalqaro baholash dasturidan foydalanishda tabiiy va san'at fanlarini uyg'un o'qitish bo'yicha muhim pedagogik qarashlarga ega bo'lgan mutafakkirlar ijodidan ham xabardor bo'lish taqozo etiladi.

Misol uchun, Yevropa mamlakatlari va AQSHning ta'lim muassasalarida STEAM xalqaro ta'lim dasturiga asosan ta'lim berishda Leonardo da Vinchi (XVII asr) va Karl Yungning (XX asr) tabiiy va san'at fanlarini uyg'un o'qitishga doir qarashlaridan keng foydalanadi. Shu jihatdan milliy pedagogikamiz tarixida Abu Ali Ibn Sino (980-1037) "Tib qonunlari" va "Donishnoma" asarlarida bolalarga tabiiy va san'at fanlarini uyg'un o'qitishga doir muhim qarashlarni bayon qilib o'tganligini eslatib o'tish joiz.¹⁹ Misol uchun, bu borada mutafakkir quyidagilarni bayon qilib o'tgan:

1) tibbiyot, kimyo, matematika, musiqqa, mantiq, dorishunoslik fanlari bo'yicha bolaga albatta tushuncha berish;

2) bu fanlar bo'yicha bolaning layoqatini shakllantirish;

3) mazkur fanlar bo'yicha mustaqil izlanishga bolani ko'niktirish;

4) bu fanlar bo'yicha bolaning mustaqil fikrini shakllantirish.


Ye'tibor berilsa, bu tavsiyalar bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotgan emas. Shu sababli umumiy o'rta ta'lim maktablarida

o'qitiladigan Matematika, Afrofizmadagi olam, Tabiatshunoslik, Botanika, Musiqqa madaniyati, Zoologiya, Anatomiya, Biologiya, Fizika, Geometriya fanlari darsliklarida Abu Ali Ibn Sino kabi mutafakkirlarimizning tabiiy va san'at fanlarini uyg'un o'qitishga doir qarashlari hamda tavsiyalari aks etishi maqsadga muvofiq bo'ladi. STEAM xalqaro baholash dasturi asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishning kompyuteri metodikasidan foydalanishda ana shu masalalarga ham diqqat qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib mazkur kompyuteri metodika masofaviy ta'lim sharoitida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini STEAM xalqaro baholash dasturi asosida tashxis etishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Yuqorida biz tomonimizdan tahlil etilgan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda TIMSS xalqaro baholash dasturidan foydalanishning an'anaviy metodikasi hamda STEAM xalqaro baholash dasturi asosida tashxis etishning kompyuteri metodikasi ana shu maqsadda taqdim qilindi. Ayni paytda, ushbu xalqaro dasturlardan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda uyg'un foydalanishna mo'ljallangan *individual metodika* tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda TIMSS va STEAM xalqaro baholash dasturlaridan *uyg'un* foydalanish yanada samarali bo'ladi. Chunki bunday yondashuv o'quvchilarning o'zlashtirish imkoniyatlari to'g'risida batafsilroq ma'lumot olish hamda ular bilan individual ishlash rejalarini belgilashda qo'l keladi. Buning uchun mazkur xalqaro baholash dasturlarining eng muhim tamoyillari tashxis etish test savollarida aks etishi kerak. Shu sababli biz tomonimizdan shakllantirilgan quyidagi *individual metodika* tuzilmasiga e'tibor bering:



2.2.3-rasm. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini TIMSS va STEAM xalqaro ta'lim dasturlaridan uyg'un foydalangan holda o'rganishning individual metodikasi

E'tibor berilsa, mazkur metodikada quyidagi tamoyillarga asoslanilgan:

- 1) xalqaro baholash dasturlarining eng muhim mezonlari olingan;

2) mazkur mezonlar bo'yicha ishchi Guruh tomonidan test savollari ishlab chiqish tavsiya etilgan;

3) ishchi Guruh tomonidan tashxis etish natijalarining tahlil qilinishi va tavsiyalar ishlab chiqilishi taqdim qilingan.

Ushbu umumlashtirilgan individual metodika asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish bilan quyidagi imkoniyatlarga ega bo'linadi:

a) har bir o'quvchining matematik savodxonligi bo'yicha aniq ma'lumotga ega bo'lish;

b) har bir o'quvchining tabiiy fanlarni o'zlashtirishi bo'yicha axborot olish;

v) har bir o'quvchining tafakkur darajasini aniqlash;

g) o'quvchining ijodiy fikrlash darajasini o'rganish;

d) o'quvchining faollik darajasi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish;

ye) o'quvchining kommunikativlik (munosabatga kirisha olish) ko'nikmasini aniqlash;

yo) o'quvchining hamkorlik ko'nikmasi darajasi bo'yicha axborot olish;

j) o'quvchining mustaqil fikrlash darajasini aniqlash.

Bu mezonlar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish har bir o'quvchi bilan individual ishlash yo'nalishlarini belgilashda qo'l keladi. Shu sababli xalqaro baholash dasturlari uyg'unligida ishlab chiqilgan ushbu individual metodikadan foydalanish tavsiya etiladi.

TIMSS va STEAM xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish bilan quyidagi imkoniyatlarga ega bo'linishini ta'kidlab o'tish joiz:

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan o'quv fanlari darsliklarini takomillashtirib borish;

- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha o'quvchilarga qo'shimcha o'quv materiallari taqdim etib bloish;

- o'quvchilarning har bir fan bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirish;

- o'quvchilarning tabiiy va ilmiy tushunchalarini muntazam boyitib borish;

- aniq, tabiiy va gumanitar fanlar bo'yicha o'qitishning sinfdan tashqari shakllari imkoniyatlaridan keng foydalanish;

- o'quvchilarni faollashtirish va ularni o'zlashtirgan bilim, ko'nikma hamda malakalaridan amaliy foydalana olishga o'rgatish.

Shu sababli xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda qulay, oson va qiziqarli metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Pedagog olimlar o'rinni ta'kidlab o'tishganidek, bunday xususiyatlarga ega metodlar quyidagi imkoniyatlarni beradi:

1) o'quvchilarning bilim olish ko'nikmasini talab darajasida shakllantirish;

2) o'quvchilarning tarbiya asoslariga kutilgan darajada ko'niktirib borish;

3) o'quvchilarning o'zlashtirgan malakalaridan kelgusida foydalana olishga o'rgatish.²⁰


Bizning yondashuvimizga ko'ra, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini xalqaro baholash dasturlaridan foydalangan holda tashxis etish uchun *metodist-texnolog* bo'lish lozim. Metodist-texnolog bu ta'lim va tarbiya sohasidagi dolzarb yo'nalishlarni, mavzularni aniqlash, mavjud yutuq va kamchiliklarni hamda ularning hosil bo'lish sabablarini o'rganish, tahlil qilish va takliflar tayyorlashda keng tajribaga ega bo'lgan o'qituvchidir. Shu sababli o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini xalqaro baholash dasturlaridan foydalangan holda tashxis etuvchi o'qituvchilarning metodist-texnolog sifatidagi kompetentsiyasini tarkib topdirish taqozo etiladi. Buning uchun

oliy pedagogik ta'lim jarayonida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- talabalarга metodikalар majmui to'g'risida chuqur bilim berish; talabalarning metodik ko'nikmasini shakllantirishga e'tibor berish; imkon qadar har bir talabanning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashish layoqatini rivojlantirish; o'qitilayotgan fanlarning amaliy mashg'ulotlar qismlarini kengaytirish.

Bunday yondashish bo'lajak o'qituvchilarni metodist-texnolog sifatida tayyorlash imkonini beradi. Shunday qilib o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini xalqaro baholash dasturlaridan foydalangan holda tashxis etishning individual metodikasi amaliyotga yo'naltirilganligi bilan muhim o'rin tutadi. Boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini xalqaro dasturlardan foydalanib o'qitish integratsiyasi shu tariqa o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

E'tibor bering:



2.2.4-rasm. Boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini xalqaro dasturlardan foydalanib o'qitish integratsiyasi asoslari

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

1. Boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini integratsion o'qitishning nazariy omillarida fanlarni turkumlashitirib o'qitish va xalqaro dasturlardan foydalanib o'qitish masalasi muhim o'rin tutadi.
2. Boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini aniq fanlar (Matematika va Ijmoniy tarbiya), tabiiy fanlar (Atrofimizdagi olam va Texnologiya) hamda gumanitar fanlar (Ona tili, Chet tili, Tarbiya, Musiqa madaniyati va Tasviriy san'at) tarzida turkumlashitirib o'qitish o'ziga xos integratsiyani beradi.
3. Boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini xalqaro dasturlardan foydalanib integratsion o'qitishda milliy ruh va o'ziga xos metodikaga asoslanish taqozga etiladi. Bunda ayniqsa TIMSS va STEAM xalvaro ta'lim dasturlaridan foydalanish kutilgan samarani beradi.
4. Biz tomonimizdan tahlil etilgan boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini integratsion o'qitishning turkumlashitirib o'qitish va xalqaro dasturlardan foydalanib o'qitish nazariy omillari CHDPU "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası bilan hamkorlik qilyotgan Chirchiq shahri 8-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinflarida amaliy tajribadan o'tkazilganligi va u kutilgan samarani berganligini eslatib o'tish joiz.

III BOB. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KLASTER YONDASHUV ASOSIDA O'QUV FANLARINI INTEGRATSION O'QITISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI

3.1. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish tizimi

Boshlang'ich ta'lim klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitishning nazariy masalalari samaradorligini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bunda avvalo boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'ziga xos *malakaga* ega bo'lishi taqozo etiladi.

O'zbekistonda barpo etilayotgan Uchinchi Renaissance davrida boshlang'ich

ta'limda sifat samaradorligiga erishish va bunda boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatiga tayanish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekistonda boshlang'ich ta'limni yanada rivojlantirish jarayoni kechmoqda. Bu jarayonda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy qiyofasi (imidj) muhim o'rinni tutadi.

Xorijlik pedagog olimi N.V.Kuzmina boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qiyofasini quyidagi yondashuv asosida shakllantirishni tavsiya etadi:

- 1) kasbiy bilimga ega bo'lish;
- 2) loyihachi bo'lish;
- 3) konstruktiv bo'lish;
- 4) maslahatchi bo'lish;
- 5) tashkilotchi bo'lish.²¹

Mazkur komponentlarning ma'nosi quyidagicha: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy-nazariy bilimni egallashi, mustaqil fikrga ega bo'lishi va mudom o'zi ustida ishlab borishi kerak; uning loyihachiligi har bir darsni o'ziga xos tarzda o'tkazishi bilan belgilanadi; konstruktivligi o'quvchilar bilan til topisha olishi

va bolaparvarligi bilan namoyon bo'ladi; maslahatchiligi ta'lim oluvchilar va ularning manfaatdor shaxslari bilan kirishimlidir; tashkilotchiligi esa so'ngi pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo'llay olishi bilan belgilanadi.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi ilmiy qiyofasida (imidjida) quyidagilar bo'rtib turishi kerak:

- bolaparvarlik;
- o'z kasbini sevrishi;
- pedagogik faol bo'lish;
- o'zi ustida doimiy ishlashi.

Bunday yondashuv asosida oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash mappasadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan xalqaro pedagogik tajribalarda qabul qilingan quyidagi konseptual yo'nalishlarga e'tibor berish lozim:

- a) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga kasbiy, psixologik va pedagogik bilim berish;
- b) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik ko'nikma bilan qurllantirish;
- v) boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zamonaviy texnologik imkoniyatlaridan foydalanishga o'rgatish;
- g) bola bilan ishlash psixologiyasini shakllantirish.

Ushbu yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash kutilgan samararni berishi shubhasizdir. Ayni paytda, har bir o'qituvchi faoliyati davomida o'zining kasbiy qiyofasini takomillashtirib borishini unutilib bo'lmaydi.

Bizning yondashuvimizga binoan bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilari zamonaviy yondashuvlardan xabardor bo'lishi kerak. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari qiyofasida pedagogik, psixologik va estetik malakalik bo'rtib

turishi kerak. Bu borada quyidagi pedagogik malakalarni egallash maqsadga muvofiq bo'ladi:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari pedagogik vazifani qo'ya olishi,

- o'quv-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil eta olishi kerak;

- imkon qadar har bir o'quvchi bilan individual ishlash uslubiga ega bo'lishi shart;

- o'quv materiallari bilan ishlash ko'nikmasini egallash bo'lajak o'qituvchilar uchun muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda barpo etilayotgan Uchinchi Rennessans jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash muhim vazifa hisoblanadi. Buning uchun quyidagilarga ahamiyat berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik qonuniyatlar va texnologiyalar bilan chuqur tanishtirish;

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish;

- dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish;

- ta'lim-tarbiya muassasalarining rahbar xodimlari, pedagog va murabbiylari, professor-o'qituvchilari va ilm-fan sohalari vakillarining jamiyatimizdagi o'rni va maqomini oshirish, ularning maslaqqati mehnatini munosib qadrlash va faoliyat samaradorligiga qarab moddiy rag'batlantirish;

- pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-

sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini «hayot davomida o'qish» tamoyili asosida takomillashtirib borish;

- ilmiy-tadqiqot va ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xususiy sektorning salmog'ini kengaytirish, hududlarda nodavlat ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali raqobat muhitini shakllantirish, ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;

- zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo'llagan holda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilar o'rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish;

- ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdaqi PF-6108-sonli Farmonida berilgan mazkur topshiriqlar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagogik olimlarning fikricha, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari quyidagi funksional komponentlarni bilishi kerak:

- 1) o'quv materiallarini tayyorolash va taqdim etish;
- 2) o'quvchilarni bilim va tarbiya olishga qiziqitira olishi;
- 3) o'quvchilar shaxsida uchraydigan kamchiliklarni bartaraf eta olishi;

4) muntazam ravishda o'quvchilarni kuzatib borishi.

Mazkur yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Tajribali pedagog olimlardan A.K.Markovo yondashuviga ko'ra bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyati to'rt yo'nalishdan iborat:

1) Kasbiy psixologik va pedagogik bilimlarni egallash;

2) Kasbiy pedagogik malakani egallash;

3) Kasbiy psixologik ko'nikmalarni egallash;

4) Shaxsiy fazilatlar egasi bo'lish.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, ushbu tavsiyalar nazariy va amaliy jihatdan asoslarga ega. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonini tashkil etishda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy, psixologik va estetik jihatdan tayyorlashga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi zamon rivojlanish jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda modellashtirish masalasiga ahamiyat berish dolzarb bo'lib turibdi. Unga ko'ra, oliy pedagogik ta'lim jarayoni o'ziga xos model ko'rinishiga ega bo'lishi kerak. Chungi modellashtirish to'rt jihatga ega bo'ladi:

- model bu o'quv materiallarini tizimli taqdim etish;

- model muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etib borish;

- model ta'lim oluvchini hamisha ob'yekt sifatida bilish;

- model yangi ma'lumotlarni o'z vaqtida o'quv jarayoniga kiritib borish.

Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash ishlarini modellashtirib olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020 yil 23 sentyabr) 5-bobida o'qituvchilarning huquqiy maqomi belgilangan.

Mazkur huquqiy maqomga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatga quyidagi asoslarga binoan yo'naltirilishi kerak:

- chuqur kasbiy tayyorgarlik va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lish;

- ta'lim oluvchilar huquqlariga rioya qilish;

- kafolatlangan ish sharoitidan foydalanish;

- o'quv dasturlarini tuzishda mualliflik dasturlarini ishlab chiqishni bilish;

- zamonaviy pedagogik shakllarni, o'qitish va tarbiya vositalarini erkin tanlash;

- innovatsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

- sog'liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy ko'rikdan o'tish;

- ta'lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ana shu huquqlar asosida faoliyatga yo'naltirilishi kerak. Ayni paytda, mazkur Qonunda o'qituvchilarning quyidagi majburiyatlari ham belgilab qo'yilgan:

- ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining shahni, qadriyatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

- o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'tkazishi;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovasion shakllari va usullaridan foydalanishi;

- voyaga etmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi bilan birgalikda olib borishi;

- o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi;

- tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi.

Mazkur majburiyatlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga yo'naltirishning asoslari bo'lib xizmat qiladi.

Bizning yondashuvimizga ko'ra bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy faoliyatga quyidagi mexanizmlar asosida yo'naltirilishi kerak:


a) mutaxassslik fanlarini o'qitish jarayonida;

b) maxsus kurslar vositasida;

v) mustaqil ta'lim vositasida;

g) ustoz-shogird an'anasi vositasida.

Bu mexanizmlarga amal qilish bo'ljajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga yo'naltirish jarayonini aniq tashkil etish imkonini beradi. Misol uchun, mustaqil ta'lim vositasini olaylik. Pandemiya kabi murakkab sharoitlar shuni ko'rsatdiki, oliy pedagogik ta'lim jarayoni hamisha va har qanday vaziyatda mustaqil ta'limga tayyor turishi kerak. Shunday qilib boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar pedagogik, psixologik va sotsiologik xarakterga egaligi bilan ahamiyati hisoblanadi. E'tibor bering:



3.1.1-rasm. Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar tizimi

Mazkur umumiy talablardan kelib chiqib, bo'ljajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malaka talablarini belgilash mumkin.

O'zbekistonning yangi taraqqiyotini barpo etish jarayonida boshlang'ich ta'limni rivojlantirish va uning vositasida o'quvchilarni har tomonlama barkamol voyaga etkazish vazifalari dolzarb bo'lib turibdi. Bunda asosiy vazifa boshlang'ich sinf o'qituvchilari zimmasiga tushadi. Shu sababli keyingi vaqtda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malaka talablari va ularni shakllantirishning metodik asoslari to'g'risida yangicha vazifalar qo'yilmoqda.

Bugungi kunga qadar amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 fevraldagi 25-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo'yiladigan Davlat talablari"da boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malaka talablari belgilangan. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchisi avvalo oliy ma'lumoti bo'lishi kerak. Bu o'rinda "oliy ma'lumoti bo'lish" tushunchasini boshlang'ich ta'lim asoslari va boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlar bo'yicha kasbiy-nazariy bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyaga ega bo'lishlikni tushunish lozim.

Mazkur Davlat talablarida boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun malaka talablari quyidagicha belgilangan:

- 1) o'qitish (dars berish) mahorati;
 - 2) tarbiyalash mahorati;
 - 3) o'quv-tarbiya jarayonida gumanitar omilni belgilaydigan shaxsiy sifatlari;
 - 4) boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlarini xolissona nazorat qilish va baholash mahorati.
- Bu o'rinda o'qitish (dars berish) mahorati bo'yicha quyidagi talablar belgilanganligini eslatib o'tish joiz:
- kasbiy layoqat va eruditsiya (his-tuyg'uga) ega bo'lish;

- psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lish;
 - boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga va yangi ilmlar olishga o'rgatish mahoratiga ega bo'lish;
 - o'quv adabiyotlari shakllari va turlarini bilish;
 - yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini egallash, Internet global tarmog'i bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lish;
 - malaka oshirish shakllarini bilish;
 - ilmiy-pedagogik ijodiyot metodologiyasini bilish;
 - pedagogik fanlarning asosiy yo'nalishlarini bilish;
 - predmetlararo aloqalardan foydalanish mahoratiga ega bo'lish;
 - notiqlik san'ati asoslarini bilish;
 - bola huquqlari va ta'limga oid xujjatlarni bilish.
- Mazkur talablar boshlang'ich sinf o'qituvchisining amaliy faoliyati davomida shakllanib boradi va ular davomli malaka oshirish vositasida takomillashtiriladi.
- Davlat talablarida tarbiyalash mahorati** bo'yicha boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun quyidagi malaka talablari qo'yilgan:
- tarbiyalashning metodikasini bilish;
 - tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini bilish;
 - tarbiyalash jarayonida etika va estetika qoidalariga amal qilish;
 - boshlang'ich sinf o'quvchilarining har birini teng va huquqiy asosda tabiiyalash.
- Bu talablar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtiriladi va amaliy faoliyat jarayonida tajriba sifatida rivojlanib boriladi.
- Mazkur Davlat talablarida boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun quyidagi *shaxsiy sifatlarga* ega bo'lish belgilangan:
- talabchan bo'lish;
 - haqoniy bo'lish;

- halollikka amal qilish;
 - mehribon bo'lish;
 - hushmuomala bo'lish.
- E'tibor berilsa, bu talablar har bir insonning shaxsida mavjud va boshlang'ich sinf o'qituvchisi amaliy faoliyati davomida ularga birlamchi tarzda amal qilishi taqozo etiladi.
- Davlat talablarida boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun o'quvchilarning bilimlarini *xolisona nazorat qilish va baholash* bo'yicha quyidagi malaka talablari qo'yilgan:
- dars berishda psixologik-pedagogik qoidalarga qat'iy amal qilish;
 - boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyalanish jarayonini kuzatib borish;
 - o'quvchilarning bilimlari va ko'nikmalarini holisona baholash;
 - baholashda tavsifiya etiladigan metodlar va mexanizmlarga amal qilish;
 - mustaqil ravishda standartlashtirilgan testlarni ishlab chiqish;
 - o'quvchilarning bilimi va tarbiyaviy rivojlanishini muntazam nazorat qilib borish.
- Bu talablar boshlang'ich sinf o'qituvchilarining amaliy faoliyatidagi asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shu sababli ularga amal qilishda pedagogik jamoa bilan hamkorlik qilish tavsifiya etiladi.
- E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun muhim malaka talablari belgilangan. Mazkur talablar amaliy faoliyat davomida shakllanib boriladi va qayta tayyorlash, malaka oshirish hamda muddati o'qishlar davomida ular rivojlantiriladi.
- Maktab pedagogik jamoasi boshlang'ich sinf o'qituvchisining malaka talablariga javob berishi va amal qilishi to'g'risida xulosa

berish huquqiga ega. Shu jihatdan mazkur talabalarining ahamiyati muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun qo'yilayotgan malaka talablari ularning amaliy faoliyatida sifat va samaradorlikka erishish uchun asosiy ta'limiy hujjat hisoblanadi. Shu sababli har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisining mazkur talablarga javob berishi va ularga rioya qilishi maktab pedagogik jamoasining vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mazkur umumiy va malaka talablariga ega bo'lishi o'quv fanlarini integratsion o'qitishning nazariy masalalari samaradorligiga asos bo'ladi. Shu nuqtai nazaridan tadqiqotimizning pedagogik tajriba-sinov ishlari belgilandi.

Tadqiqotimizning pedagogik tajriba-sinov ishlari Chirchiq davlat pedagogika universiteti (sobiq Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti), Jizzax davlat pedagogika universiteti (sobiq Jizzax davlat pedagogika instituti) va Navoiy davlat pedagogika instituti boshlang'ich ta'lim yo'nalishining 401 nafar talabalari ishtirokida amalga oshirildi.

Buning uchun respandent talabalar nazorat va tajriba guruhlariga bo'linadi. Mazkur tadqiqot ishtirokchisi talabalar bilan qo'yilayotgan muammo bo'yicha suhbat o'tkazilib, tushuntirishlar berildi. Savolnoma asosida o'tkaziladigan test bo'yicha trening amalga oshirildi va unda talabalarining qo'yilayotgan muammo bo'yicha tushunchalarga ega bo'lishiga asosiy e'tibor qaratildi.

Pedagogik tajriba – sinov ishtarini o'tkazishda tushuntirish, test, suhbat, trening va savol-javob metodlariga asoslanildi. Natijada respandent talabalarining faollashuviga erishildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari quyidagi ikki bosqichda o'tkazildi: *Birinchi bosqich* (2021 yil aprel oyi) – ta'kidlovchi bosqich. Bu bosqichda tajriba-sinov ishlarining test shakliga

asoslangan So'rovnoma tuzilib, u bo'yicha respandent talabalariga tushuntirishlar berildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari o'tkaziladigan joylar tanlandi va dastlabki bosqichda so'rovnoma bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rtasida o'tkazildi. So'rovnoma natijalari tahlil qilinib, respandent talabalar bilan muhokama qilindi va ular bilan mavzu doirasida suhbatlar o'tkazildi. Buning natijasida tajriba-sinov ishlarining mazmuni va ahamiyati to'g'risida ishtirokchi talabalarining to'liq tushunchaga ega bo'lishiga erishildi.

Ikkinchi bosqich (2022 yil mart oyi) – nazorat bosqichi. Mazkur bosqichda yakuniy so'rovnoma o'tkazildi va uning natijalari tahlil qilindi. Birinchi bosqichdan keyingi o'tgan davr maboyrnida respandent talabalar bilan mulog'atda bo'lib turildi va ularning qo'yilayotgan muammo bo'yicha fikrlari umumlashtirib borildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari quyidagicha bo'ldi:

3.1.1 -jadval (foiz hisobidan)

№	Savollar	Javoblar			
		Birinchi bosqichda Ta'kidlovchi guruh	Ikkinchi bosqichda	Nazorat guruhi	
1	"Integrasiya" so'zining ma'nosi nima?	31	14	34	13
2	Integratsion o'qitish deganda nimani tushunasiz?	33	35	41	34
3	Boshlang'ich sinf o'quv fanlarini integratsion o'qitish to'g'risida bilasizmi?	18	32	44	12
4	Boshlang'ich sinf o'quv fanlarini turkumlashtirib	14	28	45	30

	o'qitish integratsiyasidan xabardormisiz?				
5	Boshlang'ich sinf o'quv fanlarini xalqaro dasturlardan foydalanib o'qitish to'g'risida tushunchaga egasizmi?	16	30	46	14
6	TIMS xalqaro ta'lim dasturini bilasizmi?	11	41	47	14
7	Siz boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'zaro bog'liklikda, aloqadorlikda va uyg'unlikda o'qitish zarur deb hisoblaysizmi?	15	16	44	11
8	Integratsion o'qitish to'g'risida tushunchangizni yozing	14	.	48	3

Olingan javoblar pedagogik tajriba-sinov ishlarimizning maqsadli o'tkazilganini ko'rsatdi.

3.2. Pedagogik tajriba – sinov ishlarining natijalari

Tadqiqotimizning pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari quyidagilardan iborat:

Tajriba-sinov ishlarida jami 401 nafar talabalar ishtirok etdi. Shundan 205 nafari tajriba guruhida, 196 nafari esa nazorat guruhida ishtirok etdi.

Talabalarining o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish qobiliyatlarini baholash uchun testlar, amaliy topshiriqlar ishlab chiqildi va tajriba sinov ishlarida qo'llanildi.

Tajriba va nazorat guruhlari talabalarining tajriba guruhini va nazorat guruhini o'zlashtirish ko'rsatkichi 1-jadvalda keltirilgan.

0,5	2,9	0,5	0,1
-----	-----	-----	-----

№ Oliy muassalari nomlari	ta'lim	Nazorat guruhi			Tajriba guruhi		
		Yuqori	O'rta	Past	Yuqori	O'rta	Past
1.	Chirchiq davlat pedagogika universiteti	11	28	27	21	36	12
2.	Ijzax davlat pedagogika universiteti	10	28	27	20	35	13
3.	Navoiy davlat pedagogika instituti	10	28	27	20	35	13
Barcha OTMlar bo'yicha umumiy natijalar		31	84	81	61	106	38

O'tkazilgan tajriba-sinov natijalariga asoslangan holda talabalarining klaster yondashuvi asosida o'quv fanlarining samaradorligini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari tajriba va nazorat guruhlariidagi o'rtacha o'zlashtirishlarini Studentning matematik-statistika metodi yordamida tahlil etdik.

Masalaning qisqacha mohiyati quyidagilardan iborat: ikkita bo'sh to'plam berilgan bo'lsin.

Biri tajriba guruhidagi talabalar bilimining o'rtacha ballari bo'lsa, ikkinchisi esa nazorat guruhi talabari bilimining o'rtacha ballari. Baholar normal taqsimotga ega deb hisoblanadi.

Bunday faraz o'rinihdir, chunki normal taqsimotga yaqinlashish shartlari soddaga bo'lib, ular bajariladi.

3.1-jadvalga asosan tajriba va nazorat guruhlariidagi o'zlashtirishlari samaradorligini ko'rsatuvchi N₁ gipoteza va unga zid bo'lgan N₀ gipoteza tanlanadi.

Tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari va talabalar sonini mos ravishda X₁ va X₂ lar va shu kabi nazorat guruhidagi esa Y₁ va Y₂ lar orgali belgilab olib, quyidagi statistik guruhlangan

variatsion qatorlarga ega bo'lamiz, shuningdek, yuqori ko'rsatkichni 3 ball bilan, o'rta ko'rsatkichni esa 2 ball bilan va quyi ko'rsatkichni 1 ball bilan belgilaymiz.

3.2- jadvall

Guruhlar	O'quvchilar soni	O'zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba guruhi	205	61	106	38
Nazorat guruhi	196	31	84	81


Tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

$$\begin{cases} X_1 & 3; & 2; & 1; \\ n_1 & 61; & 106; & 38; \end{cases} \quad n = \sum_{i=1}^3 n_i = 205$$

Nazorat guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

$$\begin{cases} Y_1 & 3; & 2; & 1; \\ m_1 & 31; & 84; & 81; \end{cases} \quad m = \sum_{j=1}^3 m_j = 196$$

Bu tahlallarga mos kelgan diagramma quyidagicha ko'rinishni oladi:



1-rasm. Tajriba-sinov o'tkazilgan o'liy ta'lim muassasalari talabalarining tajriba yakunidagi umumiy natijalar diagrammasi

Statistik tahlil o'tkazishni qulaylashtirish maqsadida yuqoridagi variatsion qatorlardan n_i va m_j takroriylik (chastota)larni mos statistik ehtimollik formulalari

$$P_i = \frac{n_i}{n} \quad \text{va} \quad q_j = \frac{m_j}{m}$$

asosida hisoblaymiz.

$$\begin{cases} X_1 & 3; & 2; & 1; \\ P_1 & 0,3; & 0,52; & 0,19; \end{cases} \quad \sum_{i=1}^3 P_i = 1$$

$$\begin{cases} Y_1 & 3; & 2; & 1; \\ q_1 & 0,16; & 0,43; & 0,41; \end{cases} \quad \sum_{j=1}^3 q_j = 1$$

Statistik tahlilni har ikki guruh bo'yicha o'rta o'zlashtirishlarini hisoblab, qiyoslashdan boshlaymiz. O'rta o'zlashtirish ko'rsatkichlari quyidagi natijalarni berdi:

$$\bar{X} = \sum_{i=1}^3 P_i X_i = 0,3 \cdot 3 + 0,52 \cdot 2 + 0,19 \cdot 1 = 0,9 + 1,04 + 0,19 = 2,13$$

$$\text{Foizda } \bar{X}\% = \frac{2,13}{3} \cdot 100\% = 71\%$$

$$\bar{Y} = \sum_{j=1}^3 q_j Y_j = 0,16 \cdot 3 + 0,43 \cdot 2 + 0,41 \cdot 1 = 0,48 + 0,86 + 0,41 = 1,75$$

$$\text{Foizda } \bar{Y}\% = \frac{1,75}{3} \cdot 100\% = 58,3\%$$

Demak, tajriba va nazorat guruhlaridagi o'quvchilarda (71-58,3)%=12,7% ga yuqori ekan. Bu esa o'z navbatida $\frac{71\%}{58,3\%} = 1,22$ barobar ortiqrogini anglatadi.

O'zlashtirishni aniqlash jarayonida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklarni aniqlash maqsadida dastlab o'rta kvadratik va standart xatoliklarni aniqlaymiz.

O'rta kvadratik xatoliklar:

$$S_x^2 = \sum_{i=1}^3 P_i X_i^2 - (\bar{X})^2 = 0,3 \cdot 3^2 + 0,52 \cdot 2^2 + 0,19 \cdot 1^2 - 2,13^2 = 0,3 \cdot 9 + 0,52 \cdot 4 + 0,19 \cdot 1 - 4,5369 = 2,7 + 2,08 + 0,19 - 4,5369 = 0,4331$$

$$S_y^2 = \sum_{j=1}^3 q_j Y_j^2 - (\bar{Y})^2 = 0,16 \cdot 3^2 + 0,43 \cdot 2^2 + 0,41 \cdot 1^2 - 1,75^2 = 0,16 \cdot 9 + 0,43 \cdot 4 + 0,41 \cdot 1 - 3,0625 = 1,44 + 1,72 + 0,41 - 3,0625 = 0,5075$$

Standart xatoliklar o'quvchilarda:

$$S_x = \sqrt{0,4331} = 0,66, \quad S_y = \sqrt{0,5075} = 0,71.$$

Bundan, tajriba guruhidagi standart xatolik nazorat guruhidagi ko'rsatkichlarga nisbatan kichik bo'ldi, ya'ni $0,66 < 0,71$. Buni yanada aniqroq ko'rsatish maqsadida har ikki statistik tanlanma bo'yicha o'rta qiymat aniqliklarini biz variatsiya koeffitsiyentlari orgali, ya'ni C_x va C_y formula orgali hisoblaymiz:

$$C_x = \frac{S_x}{\sqrt{n} \cdot \bar{x}} \cdot 100\% = \frac{0,66 \cdot 100\%}{\sqrt{205} \cdot 2,13} = \frac{66\%}{13 \cdot 2,13} = \frac{66\%}{30,49} = 2,16\% \approx 2\%$$

$$C_y = \frac{S_y}{\sqrt{n} \cdot \bar{y}} \cdot 100\% = \frac{0,71 \cdot 100\%}{\sqrt{196} \cdot 1,75} = \frac{71\%}{14 \cdot 1,75} = \frac{71\%}{24,5} = 2,897\% \approx 3\%$$

Demak, tajriba guruhidagi o'rta o'zlashtirish ko'rsatkichi aniqligi nazorat guruhidan kichik ekan.

Endi ikkita bosh to'planning nomal'um o'rta qiymatlariga o'xshashligini hisobga olib Styudentning tanlanmali mezoni asosida nolinchii gipotezani tekshiramiz:

$$H_0: \mu = \mu_y$$

Shunga asosan quyidagi hisoblanishni bajarimiz:

$$T_{xy} = \frac{\bar{x} - \bar{y}}{\sqrt{\frac{S_x^2}{n} + \frac{S_y^2}{m}}} = \frac{2,13 - 1,75}{\sqrt{\frac{0,4356}{205} + \frac{0,5041}{196}}} = \frac{0,38}{\sqrt{0,0021 + 0,0026}} = \frac{0,38}{\sqrt{0,0047}} = \frac{0,38}{0,068} = 5,59$$

Styudent mezoni asosida erkinlik darajasini quyidagi formula orgali hisoblaymiz:

$$k = \frac{\left(\frac{S_x^2}{n} + \frac{S_y^2}{m}\right)^2}{\frac{\left(\frac{S_x^2}{n}\right)^2}{n-1} + \frac{\left(\frac{S_y^2}{m}\right)^2}{m-1}} = \frac{\left(\frac{0,4356}{205} + \frac{0,5041}{196}\right)^2}{\frac{\left(\frac{0,4356}{205}\right)^2}{204} + \frac{\left(\frac{0,5041}{196}\right)^2}{195}} = \frac{(0,0021 + 0,0026)^2}{\frac{(0,0021)^2}{205} + \frac{(0,0026)^2}{195}} = \frac{0,00002209}{\frac{0,0000044}{204} + \frac{0,0000068}{195}} = \frac{0,00002209}{0,000000216 + 0,000000035} = \frac{0,00002209}{0,000000715} = 3089,51048$$

ushbu ehtimollik uchun statistik alomatning qiymatdorlik darajasini $\alpha=0,05$ deb olsak, u holda $r=1-\alpha=0,95$ ga hamda erkinlik darajasi $k=801,82$ ga teng. Styudent funksiyasi taqsimot jadvalidan ikki tomonlama mezonning kritik nuqtasi:

$$t_{1-\frac{\alpha}{2}}(k) = t_{1-\frac{0,05}{2}}(3089,51048) = t_{0,975}(3089,51048) = 1,96$$

Bundan ko'rinib turibdiki, statistik tanlanma qiymati kritik nuqtadan katta ekan. Bundan Styudentning tanlanma mezoni:

$$T_{xy} = 5,59 > 1,96 \text{ ga teng.}$$

Demak, bosh o'rta qiymatlar tengligi haqidagi H_0 nolinchii gipoteza rad etiladi. Buni 95% ishonchlik bilan ay'rish mumkinki, tajriba-sinov guruhlaridagi o'rta o'zlashtirish ko'rsatkichlari har doim nazorat guruhlaridagi o'rta o'zlashtirish ko'rsatkichlaridan yuqori bo'ldi.

Endi baholashning samaradorlik ko'rsatkichini aniqlash uchun ishonchli intervalni topamiz:

$$\Delta_x = t_r \cdot \frac{S_x}{\sqrt{n}} = 1,96 \cdot \frac{0,66}{\sqrt{205}} = 1,96 \cdot \frac{0,66}{14} = \frac{1,2936}{14} \approx 0,092$$

$$\Delta_y = t_r \cdot \frac{S_y}{\sqrt{n}} = 1,96 \cdot \frac{0,71}{\sqrt{196}} = 1,96 \cdot \frac{0,71}{14} = \frac{1,3916}{14} \approx 0,099$$


ga teng. Topilgan natijalardan tajriba guruhi uchun ishonchli intervalni topsak: $\bar{X} - \Delta_x \leq a \leq \bar{X} + \Delta_x$

$$2,13 - 0,092 \leq a \leq 2,13 + 0,092 \quad 2,038 \leq a \leq 2,222$$

Nazorat guruhi uchun ishonchli interval:

$$\bar{Y} - \Delta_y \leq a \leq \bar{Y} + \Delta_y$$

$$1,75 - 0,099 \leq a \leq 1,75 + 0,099 \quad 1,658 \leq a \leq 1,849$$



Bundan $\alpha=0,05$ qiymatdoriik darajasi bilan aytish mumkinki, texnologiya fani o'qituvchilarida tajriba yakunidagi o'rtacha baho tajriba boshidagi o'rtacha bahodan yuqori va oraliq intervallari ustma-ust tushmayapti. O'quvchilarda ham xuddi shunday tajriba guruhidagi o'rtacha baho nazorat guruhidagi o'rtacha bahodan yuqori va oraliq intervallari ustma-ust tushmayapti. Demak, matematik-statistik tahlilga asosan, yaxshi natijaga erishilgani ma'lum bo'ldi.

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatgichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma'lum $\bar{x}=2,13$; $\bar{y}=1,75$; $\Delta_x=0,092$; $\Delta_y=0,099$; ga teng.

Bundan sifat ko'rsatgichlari:

$$K_{\text{yat}} = \frac{(\bar{x} - \Delta_x)}{(\bar{y} + \Delta_y)} = \frac{2,13 - 0,092}{1,75 + 0,099} = \frac{2,038}{1,849} = 1,102 > 1;$$

$$K_{\text{os}} = (\bar{x} - \Delta_x) - (\bar{y} - \Delta_y) = (2,13 - 0,092) - (1,75 - 0,099) = 2,038 - 1,651 = 0,387 > 0$$

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezonini birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezonini noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba guruhidagi va hamda tajriba yakunidagi o'zlashtirish nazorat guruhidagi va tajriba boshidagi o'zlashtirishdan yuqori ekan.

Bundan shuni aytish mumkinki, tajriba guruhining ko'rsatkichi nazorat guruhinikiga nisbatan 12,7% ga oshganligini ko'rish mumkin.

O'tkazilgan statistik tahlillardan tajriba guruhida qo'llanilgan huquq terminlarining mazmunini oshirish orqali nutq va so'zlash qobiliyatlarini takomillashtirish samarador bo'lib, o'tkazilgan tajriba-sinov tahlilari uni respublikamiz miqyosida ommalashtirish mumkinligiga asos yaratadi.

Shunday qilib tadqiqotimizning pedagogik tajriba-sinov ishlari kutilgan natijani berdi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar

1. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish samaradorligi bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlari tizimli ravishda tashkil etilganligi uchun kutilgan samarani berdi. Bunda asosiy e'tibor respandent talabalarining qo'yilayotgan muammo bo'yicha etarli darajada tushunchalarga ega bo'lishiga qaratildi.

2. Respandent talabalar bilan o'tkazilgan suhbatlar, tushuntirishlar, savol-javoblar va treninglar ularning tajriba-sinov ishlarida faol ishtirok etishlariga asos bo'ldi. Talabalarining faolligi tajriba-sinov ishlarining samaradorligini ta'minladi.

3. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish samaradorligi bo'yicha respandent talabalarining o'zlashtirish darajasi 12,7 foizni tashkil etdi. Bu ijobiy holdir.

4. Pedagogik tajriba-sinov ishlari yakunida respandent talabalarining klasterli yondashuv asosida boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini integratsion o'qitishga doir qiziqishlar shakllanganligi aniqlandi va ularda qo'yilgan muammo bo'yicha ko'nikmaning tarkib topishiga erishildi.

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqotimiz natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelдик:

1. Yangi O'zbekistonning hozirgi taraqqiyoti bosqichida barcha sohalar qatorida boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitishning pedagogik muammosini o'rganish dolzarb bo'lib turibdi. Bu masala ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, innovatsion taraqqiyot talablari va jamiyatning ehtiyoji bilan izohlanadi. Ta'lim tizimida integratsion o'qitish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uning mazmunini integratsiya tushunchasi ma'nosi, integratsion o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarga egaligi va integratsion o'qitish kutilgan samarani berishi tashkil etadi.

2. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitishning zaruriyati fanlararo bog'liqlik, o'quv fanlari mavzularining o'zaro bog'liqligi va darsliklarning o'quv materiallarini uyg'unlik asosida takomillashtirib borishdan iborat. Bunda boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini aniq, tabiiy va gumanitar turkumlarga bo'lib integratsion o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish o'quvchilarga chuqurlashtirilgan bilim berish, mustaqil fikrlash va dunyoqarashini shakllantirish hamda ularni ta'limning keyingi bosqichlariga munosib tayyorlash bo'yicha keng imkoniyatlarga ega bo'linadi. Chunki o'quv fanlarini integratsion o'qitish o'quvchilarning aniq, tabiiy va gumanitar fanlar uyg'unligi asosida layoqatini rivojlantirib borishga asos bo'ladi.

3. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitishning nazariy omillarida fanlarni turkumlashtirib o'qitish va xalqaro dasturlardan foydalanib o'qitish masalasi muhim o'rin tutadi. Boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini aniq fanlar (Matematika va jismoniy tarbiya), tabiiy fanlar (Atrоfimizdagi olam va Texnoоgiya) hamda gumanitar fanlar (Ona

tili, Chet tili, Tarbiya, Musiqqa madaniyati va Tasviriy san'at) tarzida turkumlashtirib o'qitish o'ziga xos integratsiyani beradi.

4. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini xalqaro dasturlardan foydalanib integratsion o'qitishda milliy ruh va o'ziga xos metodikaga asoslanish taqaza etiladi. Bunda gyniqsa TIMSS va STEAM xalqaro ta'lim dasturlaridan foydalanish kutilgan samarani beradi. Biz tomonimizdan tahlil etilgan boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini integratsion o'qitishning turkumlashtirib o'qitish va xalqaro dasturlardan foydalanib o'qitish nazariy omillari CHDPU "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi bilan hamkorlik qilayotgan Chirchiq shahri 8-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinflarida amaliy tajribadan o'tkazilganligi va u kutilgan samarani berganligini eslatib o'tish joiz.

5. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitishning nazariy masalalari samaradorligi pedagogik tajriba – sinov ishlari natijasida foizga erishildi.

Umumiy xulosalar asosida quyidagi tavsiyalarni taqdim etish mumkin:

1. "Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusini pedagogik darsliklarga kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. Oliy ta'lim jaryonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini integratsion o'qitish ko'nikmasini shakllantirish kutilgan samarani beradi.

3. Pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kurslari dasturlariga "Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusini kiritish va trening mashg'ulotini belgilash amaliy faoliyatdagi o'qituvchilarning mazkur masala bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lishini yuzaga keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ – huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga ega nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // "Xalq so'zi" gazetasi 2020 yil, 30 dekabr soni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan so'zlagan Murojaat nutqi. // "Xalq so'zi" gazetasi 2020 yil, 1 oktabr soni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-34-son farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". // www.Ziyounet.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risi"dagi Qonuni (2020 yil 23 sentyabr). // "Xalq so'zi" gazetasi 2020 yil, 24 sentyabr soni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. // "Xalq so'zi" gazetasi 2020 yil, 28 fevral soni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrda PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. // "Xalq so'zi" gazetasi 2020 yil, 7 noyabr soni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "Xalq ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kosepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. // www.lex.uz.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 fevraldagi PQ-4199-son "Yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, iqtidorli bolalarni qo'llab quvvatlash va

rag'batlantirish maqsadida "Prezident maktablarini ochish to'g'risida"gi qarori. // www.lex.uz.

9. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning asosiy poydevoridir. – Toshkent, 2021
10. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston – inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlatdir. – Toshkent, 2021
11. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022

II. Monografiya, ilmiy maqola, darsliklar, ilmiy to'plamlar va boshqa adabiyotlar

12. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadolikning metodologik-didaktik asoslari / ped. fanlari dokt. Diss. -T.: 2006. -262 b.
13. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadolikda yangi texnologiyalarning o'rnini // "Info COM, UZ" jurnal. -22005. №7, -42-43 b.
14. Абдуллаева Б.С., Уразова М.Б., Вохидова Н.Х. Общан педагогика. – Т.: "Сано-стандарт", 2017. -364 с.
15. Абдурахманов О.К. Фан, та'лим ва ишлаб чиқариш интеграцияси. -Т.: Фан ва технология. 2014. -23 б.
16. Адизов В.Р. Вoshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped.fan.dok...diss.-Buxoro, 2002. -276 b.
17. Begimqulov U.Sh Oliy pedagogik ta'lim tizimiga zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-pedagogik asoslari // ped.fanlari doktori diss. -T.: TDPU, 2007. -250 b
18. Ибрагимов Х., Абдуллаева Ш. Педагогика назарияси. -Т.: Фан ва технология, 2008. -288 б
19. Герд А. Избранные педагогические труды. -М., 1953. -106с.
20. Yo'ldoshev J.A. Ta'lim yangilanish yo'lida. -T.: "O'qituvchi". 200-207 b.

21. Jo'rayev R., Zimlinov A. Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalash.-T.: "Sharq". 2005.-78b.
22. Karimjonov A., Ochilov F. Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya muammolari.-T.: "Girdavs-shox", 2021.-205 b.
23. Mavlonova R., Vohidova N., Raхmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi.-T.: "Fan va texnologiya", 2010. -310 b.
24. Mavlonova R.A. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Metodik qo'llanma. -T.: 2005.-110b.
25. Mavlonova R.A., Raхmonqulova N.X. Boshlang'ich ta'limni integratsiyalashning pedagogik texnologiyasi.-T.: "Im ziyu". 2009.-210b.
26. Margonov Sh. Pedagogika fanidan o'qitishning elektron-modulli didaktik ta'minotini ishlab chiqish texnologiyasi.-T.: "Ishonchli hamkor", 2021.-85 b.
27. Maxkamov U. O'qituvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari.-T.: "Fan", 1995.-200 b.
28. Maxmudov Yu. Pedagogik tajriba va uni o'tkazish.-T.: O'zPFGT. 1993.-52 b.
29. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.-T.: "O'qituvchi", 1996.-192 b.
30. Musurmanov R. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va boshqarish. -T.: "Fan va texnologiya", 2011. -B. 144
31. Musurmonov R., Shodmonov M., Musulmonova N., Rasuleva M. Uzlüksiz ta'lim tizimida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mexanizmlari.-T., O'zPFGT. 2014. -160 b.
32. Muxammedov G'i., Xodjamqulov U. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: ta'rif, tavsif, tasnif.-Chirchiq: "Universitet", 2019.-90 b.
33. Safo O. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari.-T.: "O'qituvchi", 1995.-208 b.

32. Safarova R.G' va b. O'quv materialini konsentrlizm tamoyili asosida talashga oid didaktik yondashuvlar. -T.: "Fan va texnologiya". 2012.-72 b
34. Скаткин.М. Проблемы современной дидактики.-М.: Просвещение».1980.-310s.
35. Toshpulatova M.I., A'zamova B.M.. Vo'rajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarini matematik tafakkurini rivojlantirishda integrativ yondashuv // NamDU ilmiy axborotnomasi. Namangan. 2019, №12.-B.173.
36. Тожхонов А. Интегративный принцип организации обучения учителей начальных классов // Boshlang'ich ta'limda integratsiyaluv-innovatsion yondashuvlar. T.: 2019, № II.-B. 170
37. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari. Pedagogika fanlari doktori diss.-Chirchiq,2020-270b

32	32. Safarova R.G' va b. O'quv materialini konsentrlizm tamoyili asosida talashga oid didaktik yondashuvlar. -T.: "Fan va texnologiya". 2012.-72 b	
34	34. Скаткин.М. Проблемы современной дидактики.-М.: Просвещение».1980.-310s.	
35	35. Toshpulatova M.I., A'zamova B.M.. Vo'rajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarini matematik tafakkurini rivojlantirishda integrativ yondashuv // NamDU ilmiy axborotnomasi. Namangan. 2019, №12.-B.173.	
36	36. Тожхонов А. Интегративный принцип организации обучения учителей начальных классов // Boshlang'ich ta'limda integratsiyaluv-innovatsion yondashuvlar. T.: 2019, № II.-B. 170	
37	37. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari. Pedagogika fanlari doktori diss.-Chirchiq,2020-270b	

MUNDARIJA

Kirish	3
I bob. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik zaruriyati	9
1.1 Klaster yondashuvi asosida integratsion o'qitish xususiyatari	9
1.2 Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish muammosi	36
Birinchi bob bo'yicha xulosalar	53
II bob. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish shakllari	55
2.1. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini turkumlashitirib o'qitish integratsion shakli	55
2.2. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini xalqaro dasturlardan foydalanib o'qitish integratsion shakli	73
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar	95
III bob. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish samaradorligi	96
3.1. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish tizimi	96
3.2. Pedagogik tajriba-sinov ishlarining natijalari	108
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar	115
Umumiy xulosa va tavsiyalar	116
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	118

Dilorom Tashpulatova

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KLASTER YONDASHUV ASOSIDA
O'QUV FANLARINI INTEGRATSION O'QITISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH
Monografiya**

Toshkent - "Innovatsiya-Ziyo" - 2022

Muharrir: Xolsaidov F. B.

Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018.

Bosishga 24.03.2023. da ruxsat etildi. Bichimi 60x90.

"Cambria" garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 8. Nashr bosma tabog'i 7,75.

Adadi 200 nusxa.

"Innovatsiya-Ziyo" MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, Farhod ko'chasi, 6-a uy.



+99893 552-11-21

Muallif va nashriyot rozilgisiz chop etish ta'qiqlanadi.

ISBN 978-9943-9167-0-7



9 789943 916707